

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI



NATIONAL UNIVERSITY OF  
UZBEKISTAN NAMED AFTER  
MIRZO ULUGBEK

# BARQAROR RIVOJLANISH BO'YICHA O'TKAZILGAN TADBIRLAR HISOBOTI



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

# Hurmatli ustozlar, hamkasblar va talabalar!



Mamlakatimizda keyingi yillarda oliy ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning amaliy natijalari – ustozlar va yoshlarning erishayotgan yutuqlari, jahon miqyosida amalga oshirayotgan izchil islohotlarimizning amaliy ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "2019–2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli Qarori, 2019-yil 8-oktyabr, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonining qabul qilinishi barcha oliy ta'lim muassasalari faoliyatini, xususan universitetimizni rivojlantirish yo'lidagi asosiy qadamlardan biridir.

So'nggi yillarda universitetimiz hayotida ulkan o'zgarishlar va yangilanishlar amalga oshirildi. Jumladan, universitetimizda hozirgi kunda 14 nafar akademiklar, 300 ga yaqin fan doktori va professorlar, 550 ga yaqin fan nomzodi va falsafa doktorlari, dotsentlar faoliyat olib borayotgani quvonarli hol, albatta. Universitetning kelajak besh yillik istiqbolli strategiyasida o'quv jarayonini tubdan isloh qilish, ilmiy faoliyatini yanada takomillashtirish, universitetning xalqaro va milliy reytingdagi mavqeini oshirish va mustahkamlashni maqsad qilganmiz.

Buning uchun ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy va innovatsion izlanishlarni kengaytirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, xorij olimlari bilan ilmiy kollaboratsiyani kengaytirish, yoshlarimizning ilm-fan va ijodiy sohalariga keng jalb etish ishlarini yanada oshirish lozim.

Universitetni jahon reytingida yuqori bo'lgan Top-500 oliy ta'lim muassasalari qatoriga kiritish, ilmiy salohiyatini oshirish yo'lida barcha professor-o'qituvchilar, yosh olimlar, magistrantlar va talabalarni Vatanimiz va universitetimiz barqaror rivojlanishi uchun fidoiy va faol bo'lishga chorlayman.

**Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti  
rektori, professor**

**Inom Urishevich Madjidov**

# Bizning 2021-yildagi xalqaro Onlayn Maktabimizga qo'shiling!



SPACECOM - kosmik tizimlar va aloqa texnologiyalari sohasida mavjud o'quv dasturlarini (rejalarini) muvofiqlashtirish, modernizatsiya qilish (takomillashtiri) va qayta tuzishga qaratilgan loyihadir.

Sizni TU Berlin & Coursento va Yevropa Ittifoqi Universitetlari bilan hamkorlikda kosmik tizimlar muhandislarining keyingi avlodini tayyorlashga yordam berish uchun 11-22 yanvar kunlari bo'lib o'tadigan "Kosmik tizimlar va aloqa muhandisligida innovatsion texnologiyalar" Xalqaro onlayn-maktab 2021 da ishtirok etishga taklif etamiz. (Zoom dasturi orqali).

Onlayn master-klass kosmik tizimlar bo'yicha ilg'or malaka oshirish, shuningdek aloqa muhandislik asoslari va muammolari bilan tanishtiradi. Kursda talabalarga sisitemalarini loyihalash va kosmik tizim muhandislari duch keladigan ba'zi real muammolar to'g'risida muhim ma'lumot beriladi.



# Prezident Murojaatnomasi professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar nigohida



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasimazmun-mohiyatini va uni keng targ'ib qilish maqsadida turli targ'ibot tadbirlari va davra suhbatlari tashkil etib kelinmoqda.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetida ham mazkur Murojjatnomada har bir yo'nalish bo'yicha belgilangan vazifalar, topshiriqlar va ularning mazmun-mohiyatini professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlarga yetkazish maqsadida tadbir o'tkazildi. Tadbirda O'zMU Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi raisi Dilorom Fayzieva, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Nodir Jumaev, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Avaz Sodiqov, Siyosiy fanlar doktori, professor Ibadulla Ergashov hamda professor-o'qituvchilar va talaba yoshlar ishtirok etdilar.

Tadbirni O'zMU Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova ochib, Murojaatnomada belgilab berilgan vazifalar va bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarga berilayotgan e'tibor hamda ularga yaratilayotgan keng imkoniyatlar hususida gapirib o'tdi




## Xalqaro e'tirof sari yana bir qadam



O'zbekiston Milliy Universitetida 30 yanvar kuni magistr, doktorant talabalar, yosh tadqiqotchilar, yosh o'qituvchilar ishtirokida "Ilmiy maqola uchun jurnal tanlash" mavzusida vertual onlayn master kurs bo'lib o'tdi. Tadbirni O'zbekiston Milliy Universiteti Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova ochib berdi. Maskur master klass Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining biologiya fakulteti bitiruvchisi, 2000 yilda Berlining Gumboldt Universiteti, Qishloq Xo'jaligi va Bog'dorchilik fakultetida fan doktori dissertatsiyasini himoya qilgan Dilfuza Egamberdieva tomonidan o'tkazildi. Dilfuza Egamberdievaning tadqiqotlari o'simlik va tuproq mikrobiomini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ayni paytda dunyoning 20 dan ortiq mamlakatlari olimlari bilan hamkorlik qilmoqda.

Onlayn master klassda 300 ga yaqin magistr, mustaqil tadqiqotchilar, universitet professor-o'qituvchilari va talabalar qatnashdi. Ushbu kursda akademik ma'lumotlar bazalari, jurnallarning impakt faktori, "shubhali jurnallar" dan ehtiyot bo'lish, mualliflar uchun ko'rsatmalar kabi bir qator mavzularda batafsil ma'lumotlar berildi.

Uchrashuv so'ngida Raima Shirinova mazkur yo'nalishda ishlarni davom ettirish bugungi kunda xorijning nufuzli universitetlar qatoridan joy olish uchun amaliy harakatlardan biri ekanligini ta'kidlab har oyda ikki marotaba master klass bo'lib o'tishini hammaga ma'lum qildi. Taklifni barcha qatnashuvchilar qo'llab-quvvatlagan holda 13 fevralda navbatdagi master klass bo'lishini kelishib oldilar



## Xalqaro reyting yo'lidagi ilmiy tadqiqotlarni qo'llab quvvatlash bo'yicha hamkorlik.



17 fevral kuni O'zbekiston Milliy Universiteti taklifiga binoan Research Support xalqaro ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash markazining O'zbekistondagi vakillari, strategik ilmiy salohiyatni oshirish bo'yicha ekspert Aliya Ospanova va ijrochi direktor Muhamedov Bahodiyor bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Ushbu uchrashuvda xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova va xalqaro reytinglarda ishtirok etish bo'limi boshlig'i Go'zal Boboyeva va xalqaro bo'lim xodimlari ishtirok etishdi.

Uchrashuvda O'zbekiston Milliy Universitetining hozirgi kundagi xalqaro reytinglardagi o'rni, istiqboldagi ilmiy salohiyati bo'yicha strategik rejalari va undagi muammolar muhokama qilindi.

Research Support markazi vakillari bu boradagi o'z fikr-mulohazalari va tahlillarini bildirib o'tishdi. Tomonlar o'zaro xamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga kelishib olishdi



# Xalqaro hamkorlik asosidagi an'anaviy konferentsiya: «Markaziy Osiyoda GIS» – GISCA 2021



2021 yil 18 fevralda O'zbekiston Milliy universiteti va Avstriya davlati Zalsburg universiteti bilan onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda GAT GISCA-2021 xalqaro konferensiyasini o'zaro hamkorlikda o'tkazish masalasi ko'rib chiqildi.

Videokonferentsiya davomida O'rta Osiyo geografiyasini ilmiy tadqiq etish axborot markazi mutaxassisi Jozef Strobl geoinformatikani samarali rivojlantirishga qaratilgan masalalar haqida gapirib o'tdi.

O'zbekiston Milliy universiteti va Avstriyaning Zalsburg universiteti xalqaro konferensiyasi 2021 yil 30 may - 3 iyun kunlari Yerasmus+DSinGIS loyihasi doirasida bo'lib o'tishiga kelishib oldilar.

Shuningdek, tomonlar nashrlarni ilmiy maqolalar to'plami shaklida nashr etish va ularni Scopus bazasida indeksatsiyalash masalalarini ham muhokama qildilar.



# Xalqaro ilmiy hamkorlik aloqalarida Orol muammosi.



2021 yilning 19 fevralda O'zbekiston Milliy universiteti va Fransua Rable nomidagi Tur universiteti ilmiy xodimlari bilan onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvda universitetning xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova, xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i Shaxnoza Nazirova, geografiya fakulteti dekani Shavkat Sharipov va geografiya sohasidagi yetuk olimlar hamda Tur universiteti xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Mark Desme, geografiya sohasidagi fransuz olimlari ishtirok etdilar.

Mark Desme geografiya sohasida tabiiy suv havzalarida og'ir metallar va organik mikro-ifloslantiruvchi moddalar bilan ifloslanishi bo'yicha tadqiqotlar bilan shug'ullanib keladi. Shuningdek, Fransiyaning Ruan, Luara daryolari muammosi, Janubi-Sharqiy Osiyodagi yirik shaharlar daryolari hamda shaharlarning suv havzalariga geokimyoviy ta'sirini o'rganishga e'tibor qaratganligi to'g'risida o'zbek olimlariga qisqacha ma'lumot berdi.

Videokonferensiya davomida ishtirokchilar Orol dengizi havzasining suv resurslari, ularni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish muammolarini muhokama qildilar. Bundan tashqari, Amudaryoning quyi oqimida suv ta'minotining hozirgi gidrologik rejimi muhokama qilindi.

Tur universiteti olimlari tomonidan o'zbek olimlari bilan hamkorlikda suv resurslari masalalari, xususan, Orol dengizi va Amudaryo muammolariga yechimiga qaratilgan xalqaro ilmiy loyiha ustida ish olib borish, Tur universiteti talabalarining akademik almashinuvini ushbu loyiha doirasida amalga oshirishga kelishib oldilar.



## Universitetda xalqaro reytingni oshirishga qaratilgan amaliy tadbirlar



Universitetda xalqaro reytinglarda ishlash bo'limi tomonidan muntazam tashkil etib boriladigan navbatdagi seminar-treninggi 20 fevral kuni bo'lib o'tdi.

Seminarni Amerika Qo'shma Shtatlari Mikrobiologiya jamiyatining O'zbekistondagi elchisi, BMTnin Jahon oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi ekspertlar guruhi a'zosi, O'zbekiston Miliy Universiteti bitiruvchisi professor Dilfuza Egamberdeva Germaniyadan turib olib bordi.

"Ilmiy tadqiqotda etika" mavzusidagi seminarda manfaatlar to'qnashuvi, ko'chirmachilik [plagiat], ilmga bo'lgan munosabat, mualliflik huquqlari mavzulari yoritib berildi. Universitet yosh tadqiqotchilari, o'qituvchilar, doktorantlar va magistrlar o'zlarining savol va fikr mulohazalari bilan faol ishtirok etdilar.

Seminar-trening nihoyasida universitetning xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori Raima Shirinova va xalqaro reytinglarda ishlash bo'limi boshlig'i Go'zal Boboeva lektor Dilfuza Egamberdievaga mazkur sohadagi fidoiyligi va jonbozligi uchun universitet rahbariyati nomidan minnatdorchilik bildirib navbatdagi seminar vaqti va mavzulari bo'yicha kelishib oldilar.



2021 yilning 23 fevral kuni O'zbekiston Milliy universiteti va Belorussiya Milliy Texnika universiteti o'rtasida istiqbolli hamkorlik qilish maqsadida onlayn uchrashuvi bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvni O'zMUning xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori Raima Shirinova ochib berdi va hamkor universitet vakillarini joriy yilda imzolangan hamkorlik Memorandumi bilan samimiy qutladi. BMTUdan o'quv ishlari bo'yicha prorektor Yuriy Nikolaychik, Belarus-O'zbekiston Instituti direktori Igor Gancherenok, fizika va iqtisodiyot fakulteti dekanlari ishtirok etishdi.

Uchrashuvda O'zMU bilan hamkorlikda lazer fizikasi, biotexnika va meditsina, kompyuter mexatronikasi kabi istiqbolli yo'nalishlar doirasida qo'shma ta'lim dasturlari ochish bo'yicha muzokaralar olib borildi.

Hamkorlar qo'shma ta'lim dasturi talablari, o'quv rejasi, qabul jarayonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar ustida ishlash uchun maxsus ishchi guruhi tuzish haqida kelishib olishdi.



## Xalqaro hamkorlik samarasi.



O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish vazifasi belgilab qo'yilgan edi. Shuningdek, mazkur oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 500 talikdagi oliy ta'lim muassasalari darajasiga ko'tarish kerakligi aniq ko'rsatib berilgan.

Bugungi kunda mazkur sohada O'zbekiston Milliy universitetida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Universitet professor-o'qituvchilarning nufuzli xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalar nashr qilish soni o'tgan yilga nisbatan 2,5 baravarga o'sdi, o'quv jarayoniga muntazam ravishda xorijlik professorlar jalb qilinmoqda va ular bilan hamkorlikda ilmiy loyihalar bajarilmoqda.



# Akademik hamkorlik onlayn ma'ruzalar orqali mustahkamlanmoqda.



2021 yilning 1 mart kuni Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek tilshunosligi va O'zbek adabiyotshunosligi kafedralari tomonidan Turkiyaning Anqara universiteti Til, tarix va geografiya fakulteti Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar bo'limi bilan hamkorlikda 2020-2021 o'quv yilining 2-semestriga rejalashtirilgan zamonaviy turkologik tadqiqotlar ma'ruzalarining 1-mashg'uloti bo'lib o'tdi.

Darsni Anqara universiteti "Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlari" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Sema Barutju O'zo'ndar ochib berdi.

Turkolog olimi o'zbek va turk xalqining do'stona aloqalari, tilimiz, adabiyotimiz, tariximiz, folklorimiz, san'atimiz mushtarakligi haqida to'xtaldi. Anqara va O'zbekiston Milliy universitetining o'tgan asr oxirida boshlangan ilmiy va pedagogik aloqalariga, xususan, akademik Iristoy Qo'chqortoyevning Anqara universitetidagi faoliyatiga yuksak baho berdi va joriy o'quv yilning 2-semestrida rejalashtirilgan zamonaviy turkologik tadqiqotlar ma'ruzalari onlayn darslari bu aloqalarni yangidan boshlayotganiga ishtirokchilarning e'tiborini qaratdi. Sema xonim so'zining oxirida bu loyihani qo'llab-quvvatlagan har ikki universitet rahbariyatiga, loyiha tashkilotchilari O'zMU professori Muhabbat Qurbonova va Anqara universiteti professori Aynur O'z O'zjonga alohida minnatdorchilik bildirdi.



## Samarali uchrashuv – maqsadli hamkorlik kafolati.



Joriy yilining 3 mart kuni Belarus Respublikasi ta'lim vaziri Igor Karpenko boshchiligida delegatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi.

Belarus Milliy Texnika universiteti, Belarus informatika va radioelektronika davlat universiteti, Frantsiska Skorina nomidagi Gomelsk Davlat universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalari rektor hamda prorektorlaridan iborat delegatsiyani O'zbekiston Milliy universiteti rektori Inom Madjidov hamda soha prorektorlari kutib oldi. Ochiq va konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda Belorussiya Milliy texnika universiteti va Respublika kasb-hunar ta'limi instituti bilan hamkorlik memorandumi imzolandi.

Unga asosan 2021-2022 o'quv yilida "Lazer fizikasi, "Materialshunoslik va materiallar texnologiyasi" (tarmoqlar bo'yicha) hamda "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barqaror atrof muhit fizikasi" yo'nalishlarida 2+ 2 qo'shma ta'lim dasturi yo'lga qo'yiladi

# Turkiyalik mutaxassisning mahorat darsi.



Dunyo ko'rgan – dunyo bilan bo'ylashadi, degan hikmatli gap bor.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bugun 30 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yilgan. Jurnalistika fakulteti talabalariga ham vaqti-vaqti bilan xorijlik mutaxassislar mahorat darslari o'tib turadi.

Yaqinda Turkiya Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasining matbuot bo'yicha eksperti Davut Gazi Benli "Chet el elchixonalari Axborot xizmatining mamlakat ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligi" mavzuida o'tgan on-layn mahorat darsi O'zMU Jurnalistika fakulteti 1-kurs talabalarida katta qiziqish uyg'otdi.

Videokonferentsaloqa shaklida o'tgan mahorat darsida Jurnalistika kafedrasida dotsenti To'lqin Eshbekov O'zbekistonda jurnalist kadrlar, xususan, Axborot xizmati xodimlari tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ma'rifiy ishlar haqida qisqacha ma'lumot berar ekan, bu borada xalqaro hamkorlik, o'zaro tajriba almashish izchil yo'lga qo'yilishi qanchalik samara berishini alohida ta'kidladi.



# Nazariya va amaliyot uyg'unligi – yetuk mutaxassislar tayyorlashning muhim omili.



Bugun O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakultetida "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi bilan hamkorlikda «O'zbekistonda sug'urta bozori va ta'limining bugungi holati, muammolari va rivojlanish istiqbollari» mavzuida ilmiy-amaliy konferentsiya bo'lib o'tdi.

Konferentsiyada "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi Bosh direktorining birinchi o'rinbosari Rustam Xalikov, sug'urta maktabi direktori Baxrom Komilov, aktuar hisoblar va sug'urta zaxiralarini shakllantirish departamenti katta menejeri Bahodir Shamsiddinov o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Konferentsiyada Rossiya Federatsiyasi Hukumati qoshidagi Moliya universiteti professori Aleksandr Syiganov onlayn tarzda «Первые итоги пандемии на рынке страховых услуг» mavzusidagi onlayn ma'ruzasi bilan qatnashdi.



## Hamkorlik va do'stlik aloqalari yanada kengaymoqda.



Joriy yilining mart oyida Belarus Respublikasi ta'lim vaziri boshchiligida delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurib respublikamizdagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish borasida muzokaralar olib borgan edi. Shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti ham Belarus Milliy Texnika universiteti hamda Respublika kasb-hunar ta'limi instituti bilan hamkorlik memorandumi imzolagan edi. O'tgan vaqt mobaynida hamkor universitetning soha prorektorlari hamda mutaxassislari yangi o'quv yilida qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish bo'yicha me'yoriy hujjatlar ustida ish olib bordilar.

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston Milliy universitetida 2019 yilda Belorus Davlat universitetining A.Saxarov nomidagi xalqaro Davlat Ekologiya instituti bilan hamkorlik shartnomasi imzolangan va unga muvofiq ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasida "Biologik ish" va Ekologiya va atrof muhit muhofazasi yo'nalishlarida qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'ygan va bugungi kunda mazkur yo'nalishda 40 nafar talaba tahsil olmoqda.

# Alisher Navoiyga bag'ishlangan xalqaro konferentsiya.




Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitetning tarix fakultetida M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti bilan birgalikda «Alisher Navoiy. Asrlar davomida xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish» mavzusida xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi.

Konferentsiyada dunyoning eng yirik tadqiqot markazlari va universitetlaridan 15 ta davlat vakillari, olimlar va tadqiqotchilar qatnashdilar. Unda 50 dan ortiq ma'ruzalar taqdim etildi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU rektori, professor Inom Madjidov o'zining qutlov nutqida Sharq Uyg'onish davrining taniqli vakili Alisher Navoiyning yubileyi turli sivilizatsiyadan kelib chiqadigan mamlakatlarni birlashtirgan muhim voqea ekanligini ta'kidladi. «Uning yubileyi va o'tkazilayotgan anjuman tarixiy xotirani saqlash va ma'naviy merosni ommalashtirishning muhim omilidir.

Alisher Navoiy o'zining o'lmas asarlarida o'z ona tilining ulkan imkoniyatlari, boyligi va go'zalligidan foydalangan holda yuksak gumanizm g'oyalari va umuminsoniy qadriyatlarni kuyladi va millionlab o'quvchilar qalbidan munosib o'rin egalladi,» -dedi Inom Madjidov.

O'zbekistonda 2021 yil Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlaydigan yil deb e'lon qilindi. Uning ijodiga bag'ishlangan tadbirlar va ilmiy konferentsiyalar yil davomida dunyo bo'ylab o'tkaziladi.



## “Sohibqiron Amir Temur – Adolat va qudrat timsoli” mavzusida ilmiy-ma’rifiy anjuman o’tkazildi.



Sohibqiron Amir Temur – o’zligimizni anglash milliy an’ana va qadriyatlarimizni tiklash borasidagi ulug’vor ishlarda xalqimizga ma’naviy kuch bag’ishlab kelayotgan ulug’ siymolardan biridir.

Amir Temurning “Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir” degan shiori Temuriylar saltanatining barcha hududlarida axloqiy-ma’naviy mezonga aylangan.

Mana shunday adolat asosida o’rnatilgan tartib-taomillar mamlakatda tinchlik-osoyishtalikni ta’minlagan, odamlarni halol mehnat qilishga, tadbirkorlik, yaratuvchanlik ruhi bilan yashashga undagan.

Bu yil Sohibqiron bobomiz Amir Temur tavallud topganiga 685 yil to’ldi. Mazkur sana munosabati bilan respublikamizning barcha hududlarida ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy anjumanlar, temurshunos olimlar bilan davra suhbatlari o’tkazilmoqda



# Xalqaro hamkorlikning yuksak istiqbollari



Respublikamizda oxirgi yillarda oliy ta'lim muassasalari o'zining xalqaro hamkorlik doirasini yanada kengaytirmoqda.

Xorijning nufuzli universitetlari, ilmiy-tadqiqot markazlari, xalqaro donor tashkilotlar va xalqaro kompaniyalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Milliy universitetida ham joriy yilning o'tgan uch oyi mobaynida xorijning eng nufuzli universitetlari rahbarlari bilan onlayn va oflayn uchrashuvlar bo'lib o'tdi, memorandumlar imzolandi, kelishuv shartonomalari olib borildi.

Xuddi shu ishlarning samarasi o'laroq 2021-2022 o'quv yilida Belarus Milliy texnika universiteti, D.I.Mendeleev nomidagi ximiya texnologiya universiteti va Rossiya Davlat gidrometeorologiya universitetlari bilan xalqaro qo'shma ta'lim dasturlarida talabalar qabul qilish yo'lga qo'yiladi



## SPACECOM va NICOPA loyihalari doirasida "SMALL SATELLITE SYSTEM ENGINEERING TRAINING" mavzusidagi uch kunlik mahorat darslari o'tkazildi.



Muxammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 2021 yil 29-31 mart kunlari Erasmus+ dasturining SPACECOM (Kosmik tizimlar va aloqa texnikalari bo'yicha yangi o'quv dasturlari) va NICOPA (Aniq qishloq xo'jaligini yuritishda yangi innovatsion kurslar) loyihalari doirasida " SMALL SATELLITE SYSTEM ENGINEERING TRAINING (Kichik sun'iy yo'ldosh tizimlarini loyihalashtirish kursi)" mavzusidagi uch kunlik mahorat darslari o'tkazildi.

Mahorat darslari Berlin Texnika universiteti qoshidagi EXOLAUNCH GmbH kompaniyasi ilmiy xodimi Daria Stepanova tomonidan olib borildi.

Tadbirda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent Davlat texnika universiteti, Toshkentdagi Turin politexnika universiteti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Farg'ona politexnika instituti xodimlari qatnashishdi.



# «Kichik sun'iy yo'ldoshlardan foydalanish» mavzusida seminar bo'lib o'tdi




O'zbekiston Milliy universitetida "NICOPA: aniq qishloq xo'jaligi uchun yangi va innovatsion kurslar" hamda "SPACECOM: Kosmik tizimlar va aloqa texnikalari bo'yicha yangi o'quv dasturlari" loyihalari doirasida 2021 yil 8-aprel kuni "Kichik sun'iy yo'ldoshlardan foydalanish" mavzusida seminar bo'lib o'tdi.

Ushbu seminarning asosiy maqsadi loyiha hamkorlari Berlin texnika universiteti va EXOLAUNCH GmbH kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan mahorat darslarida olingan bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazish hamda talabalarni halqaro loyihalarda ishtirokini oshirishga qaratilgan.

Tadbirda Geografiya va tabiiy resurslar, Fizika, Biologiya va tuproqshunoslik fakulteti professor o'qituvchilari va talabalari qatnashishdi.

Seminarda loyiha ishtirokchilari tomonidan "Kichik sun'iy yo'ldosh tizimlari", "O'zbekiston havo yo'llari aviakompaniyasi samolyotlarini kuzatib borish", "Masofadan zondlash orqali Toshkent shahrida yo'llardagi tirbandlikni va yerdan foydalanishdagi o'zgarishlarni aniqlash" mavzularida ma'ruzalar qilindi.



# Natija muborak universitetim, biroq bu hali chegara emas!





Ma'lumki, oxirgi ikki yilda O'zbekiston Milliy universiteti dunyoning bir qancha xalqaro reyting agentliklari tomonidan e'lon qilib boriladigan reytinglarda ishtirok etib kelmoqda.

Ilk qadam Green metric, Moscow International University Rankings, Times Higher Education Impact Rankings va QS University Rankings EECA kabi xalqaro reytinglarda ishtiroki bo'ldi.

2020 yilda universitet xuddi shunday reytinglardan biri "Times Higher Education Impact Rankings 2020" reytingida 5 ta yo'nalishda ya'ni Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, Kambag'alikni bartaraf etish, Ijtimoiy tenglik, Ta'lim sifati va barqaror ilmiy global xamkorlik bo'yicha ishtirok etgan edi.

2021 yilda esa universitet mazkur xalqaro reytingda o'tgan yilga nisbatan ko'proq yo'nalishlarda ya'ni 12 ta yo'nalishda ishtirok etdi va bugun dunyoning 1000 tali kuchli universitetlar tarkibiga kirgan 1115 ta universitet orasidan 801+ o'rinni egallab kuchli 1000 talik universitetlar qatoridan joy oldi.



# Halqaro hamkorlikda ta'lim, fan va ishlab chiqarish uyg'unligi.




2021 yil 22 aprel kuni Belarus Milliy Texnika universiteti rektori Sergey Vasilevich Xaritonchik boshchiligidagi delegatsiya O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi.

Delegatsiyani Milliy universitet rektori Inom Madjidov va soha prorektorlari kutib oldilar. Ma'lumki, joriy yilining fevral oyida Belarus Milliy Texnika universiteti bilan xalqaro xamkorlik memorandumi imzolangan edi va mazkur tashrifda esa memorandunga asosan qo'shma ta'lim dasturi shartnomasi, o'quv rejalar hamda fan dasturlar doirasida kelishuvlar olib borildi.

2021/2022 o'quv yilida Lazer fizikasi: Materialshunoslik va materiallar texnologiyasi (tarmoqlar bo'yicha) yo'nalishida qo'shma ta'lim dasturlariga qabulni yo'lga qo'yishga va keyinchalik boshqa istiqbolli yo'nalishlarda ham ta'lim dasturlarini kengaytirishga kelishib olindi.

Ayniqsa, BMTU rektori universitet ilmiy salohiyatli professor-o'qituvchilari va ularning ilmiy yo'nalishlari hamda tadqiqot olib borishga qaratilgan dolzarb mavzular bankini O'zMU rektoriga taqdim etdi. Mazkur yo'nalishda ikki universitet olimlari doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarga ikki tomonlama rahbarlik tajribasini yo'lga qo'yish va bu orqali ikki universitet ilmiy, akademik mavqeini oshirish hamda mustahkamlashga erishishlari mumkinligini qayd etib o'tdilar.



## Vertual uchrashuvda istiqbolli rejalar muhokamasi.



2021 yil 26 aprel kuni Xitoy Fanlar Akademiyasining Sinszyan Ekologiya va Geografiya institut va O'zbekiston Milliy universiteti o'rtasida vertual uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda institutning bosh direktori professor Chjan Yuanmin (Zhang Yuanming) boshchiligida Xitoy Akademiyasi xodimlari hamda O'zbekiston Milliy universiteti rektori Inom Madjidov, soha prorektorlari, biologiya fakulteti mutaxassislari ishtirok etdilar.

Ma'lumki, O'zbekiston Milliy Universiteti Ilmiy Kengashining 2020 yil 19 iyundagi 10-sonli qarori bilan O'zbekiston Milliy Universiteti va Xitoy Fanlar Akademiyasining Sinszyan Ekologiya va geografiya instituti o'rtasida O'zbekiston Milliy universiteti Biologiya fakulteti qoshida "Qurg'oq yerlar ekobiomlari" O'zbekiston-Xitoy qo'shma ilmiy tadqiqot laboratoriyasi tashkil etilgan edi.

O'tgan vaqt mobaynida qo'shma ilmiy tadqiqot laboratoriyasi xodimlari tomonidan 2021 yildan biologiya fayenlari doktori, professor Dilfuza Egamberdiyeva rahbarligida Uzb-Ind- 2021 - 93 - sonli "Stressli agro-ekotizimlardan sog'lom oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun yangi biochar va rizobakteriyalarga asoslangan bioinokulyat" nomli O'zbekiston-Hindiston qo'shma ilmiy amaliy loyihasi bajarishi yo'lga qo'yildi.



# O'zMU "Tokio-2020" yozgi olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rmoqda.



Shu kunlarda Osiyo, Yevropa va dunyoning boshqa davlatlarida joriy yilning yoz oylarida Yaponiyaning Tokio shahrida bo'lib o'tadigan "Tokio 2020" yozgi olimpiyada va paralimpiyada o'yinlarida ishtirok etish uchun yo'llanma beruvchi bir qator sport musobaqalari va turnirlari tashkil etilmoqda.

Jumladan, 2021 yilning 20-24 may kunlari Iordaniyaning Amman shahrida sportning taekvando turi bo'yicha "Tokio 2020" yozgi olimpiyadasiga to'g'ridan to'g'ri yo'llanma beruvchi Osiyo saralash turniri o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Mazkur saralash turniri oldidan joriy yilning 18 aprely kunidan boshlab Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Sport majmuasida Ozarbayjon, Qozog'iston va O'zbekiston milliy terma jamoalari hamkorlik o'quv-yig'in mashg'ulotlarini o'tkazishmoqda.



## Donor tashkilotlar bilan hamkorlikning yangi sahifasi.



2021 yil 27 aprel kuni O‘zbekiston Milliy universitetiga YUNISEFning O‘zbekistondagi bolalarni himoya qilish dasturi rahbari Antonio Lyudeke xonim hamda YUNISEFning O‘zbekistondagi bolalarni himoya qilish dasturi maslahatchilari Diana Isayeva va Shahlo Ashrafxo‘jayevadan iborat delegatsiya tashrif buyurdi.

Delegatsiyani O‘zbekiston Milliy universitet xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor Shirinova Raima Xakimovna, xalqaro reytinglarda ishtirok etish bo‘limi boshlig‘i Aziza To‘rakulova, ijtimoiy ish kafedrasi mudiri Latipova Nodira Muxtorjanovna va kafedra dotsenti Viktoriya Alekseyeva kutib oldilar.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Milliy universiteti uzoq yillardan buyon YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlik qilib, ijtimoiy ish sohasidagi faoliyatga e‘tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, ijtimoiy ish kafedrasi negizida Kolumbiya universiteti bilan hamkorlikda xalqaro standartlar asosida o‘qitish tizimini takomillashtirish bo‘yicha YUNISEF bilan qo‘shma loyiha amalga oshirilmoqda.





Joriy yilining 4 may kuni Fudan universitetining (Xitoy) xalqaro hamkorlik departamenti rahbari Lu Xiaoline va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha xalqaro ilmiy loyihalar bo'yicha direktor A.S.Djadalievlar hamkorlik taklifi bilan O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdilar.

Ma'lumki, Fudan universiteti xalqaro QS reytingida 34 va THE 70 o'rinni egshallagan nufuzli universitetlardan biri hisoblanadi.

Mazkur uchrashuvda Fudan universiteti vakili O'zbekiston Milliy universiteti bilan ilmiy yo'nalishda hamkorlikni yo'lga qo'yish, Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan xorijiy universitetlar uchun ajratilgan dasturlarda ishtirok etish masalalari muhokama qilindi.

Lu Xiaoline 2021 yil may oyining oxiriga qadar e'lon qilingan 5 ta yo'nalish ya'ni ilg'or ishlab chiqarish, kasalliklarning oldini olish, infratuzilma muhandisligi, energiyani tejash va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari bo'yicha taqdimot qildi.

Uchrashuvda ishtirok etgan biologiya fakulteti professori, biologiya fanlari doktori Laziza Ikramovna universitetda biologiya va tuproqshunoslik yo'nalishida amalga oshiriladigan loyihalar to'g'risida ma'lumot berdi va hamkorlikda mazkur dasturda ishtirok etishini bildirdi.

## TEIKYO (Yaponiya) universiteti bilan ilmiy hamkorlik muhokamasi.



6 may kuni Toshkentdagi O‘zbek-Yapon yoshlar innovatsiya markazi direktori Nargiza Amirova, direktor o‘rinbosari Zuhra Qodirova va JICA markazi maslahatchisi Yanagida Yukinorilar O‘zbekiston Milliy universiteti tashrif buyurdi. Delegatsiya a‘zolarini xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor Raima Shirinova va xalqaro reytinglarda ishlash bo‘limi boshlig‘i Aziza To‘rakulovalar kutib olishdi.

Tashrifdan maqsad Yaponiyaning nufuzli oliy ta‘lim muassasalaridan biri TEIKYO universiteti bilan ilmiy hamkorlik o‘rnatish hamda ikki universitet shuningdek, O‘zbek-Yapon yoshlar innovatsiya markazi o‘rtasida hamkorlik memorandumini imzolashdan iborat. Uchrashuvda O‘zbek-Yapon yoshlar innovatsiya markazi direktori Nargiza Amirova markazning respublikada ilmiy-innovatsion salohiyatni oshirish maqsadida fan va texnologiyalar sohasida olib boradigan faoliyatiga to‘xtalib o‘tdi. Markaz Sharqiy Osiyo mintaqasida, balki butun jahon ilmiy hamjamiyatida tan olingan Yaponiya kabi rivojlangan davlatning yetakchi ilmiy tashkilotlari bilan olib boradigan faoliyati, talabalar uchun e‘lon qilib boriladigan turli xil dasturlar to‘g‘risida ma‘lumot berdi.



# O'ZBEKISTON ELEKTRON OAV MILLIY ASSOTSIATSIYASI 5 TA UNIVERSITET BILAN MEMORANDUM IMZOLADI.



Bugun “Yangi O‘zbekiston. Yangi nigoh” mediahaftaligi doirasida O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida yangi o‘quv binosi hamda mamlakatimizdagi ilk talabalar multimedias studiyasining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Bu yerda eng faol va tashabbuskor talabalar guruhi jurnalistikaning amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari, shuningdek, talabalar hayoti bilan bog‘liq yangiliklarni yoritishlari hamda zamonaviy jurnalistika uslublari bo‘yicha amaliyot o‘tashlari mumkin.

Tadbirda Milliy universiteti rektori Inomjon Madjidov, O‘zbekiston Elektron ommaviy axborot vositalari Milliy Assotsiatsiyasi Bosh direktori Jaloliddin Safoev, Xalqaro Press-klub raisi, O‘zJOKU rektori Sherzodxon Qudratjo‘ja, O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti rektori Ulug‘bek Azizov, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti rektori Sarvar Babaxodjaev, Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti rektori Gulchehra Rixsievalar, shuningdek, yosh mutaxassislar va talaba-yoshlar ishtirok etishdi.

Anjumanda so‘zga chiqqan O‘zbekiston Milliy universiteti rektori Inomjon Madjidov o‘z so‘zida bugungi kunda jurnalistika rivoji jamiyatning rivojini barometri bo‘lib xizmat qilish darajasiga chiqayotgani, mana shu soha qachonki raqobatbardosh kadrlar bilan ta‘minlangandagina rivoj topishini ta‘kidlab o‘tdi.



## Onlayn uchrashuvda istiqbolli vazifalar muhokamasi.



Istiqbolli hamkorlikni mustahkamlash maqsadida joriy yilning 6 may kuni O'zbekiston Milliy universiteti va Beolorus Davlat universiteti o'rtasida hamkorlikning dolzarb masalalari va ustivor sohalarida o'zaro kelishuvlarni amalga oshirishning hozirgi holati muhokamasiga bag'ishlangan onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda ikki universitetning rektorlari Inom Madjidov va Andrey Korol' hamda soha prorektorlari, dekanlar ishtirok etishdi.

Ilgari ma'lum qilganimizdek 2021 yil fevral' oyida universitetlar o'zaro hamkorlik memorandumini imzolagan edilar. Mazkur uchrashuvda hamkorlik doirasida amalga oshiriladigan ishlarni yana bir bor belgilab olish, mas'ullar tayinlash va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish yuzasidan muzokaralar olib borildi. Videomuloqotda asosan quyidagi masalalar yuzasidan aniq vazifalar belgilab olindi:




# Xalqaro universitetlar bilan hamkorlikda “DISTANCE EDUCATION: INNOVATIONS, PEDAGOGICAL ASPECTS” mavzuida xalqarokonferentsiya bo’lib o’tdi.



2021 yil 12 may kuni Ukraina davlati, Kiyev Milliy aviatsiya universiteti, Shotlandiya universiteti, Latviya davlat universiteti, Tallin texnologiya universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Slovakiya davlat universiteti, Belarus davlat universiteti bilan hamkorlikda “DISTANCE EDUCATION: INNOVATIONS, PEDAGOGICAL ASPECTS” mavzusida xalqaro konferentsiya o‘tkazildi.

Ushbu konferentsiya moderatori sifatida Laxtionova Lyudmila Anatolevna qatnashdi. Shuningdek, konferentsiyada Ukraina, Shotlandiya, Latviya, Turkiya, Azarbayjon, Xindiston, Slovakiya, Xorvatiya va shu kabi boshqa davlat olimlari ishtirok etdi. Konferentsiya davomida barcha ishtirokchi olimlar pandemiya sharoitida masofaviy ta’limni tashkil etishdagi muammolar va ularni kelgusida bartaraf etish istiqbollari to‘g‘risida muhokamalar yuritdilar. Jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti professori, konferentsiyaning tashkiliy qo‘mitasi a‘zosi Nigina Shermuxamedova “Problems and Prospects of Distance Education in Uzbekistan” mavzusida ma’ruza qildi.



# EZGU TASHABBUSLAR, MUSHTARAK MAQSADLAR YO'LIDA HAMKORLIK.



2021 yil 20 may kuni O'zbekiston Milliy Universiteti va Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston Milliy universiteti soha prorektorlarining virtual uchrashuv bo'lib.

Ushbu uchrashuvda O'zbekiston Milliy universiteti xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Xikmatjon Saburov, xalqaro reytingni rivojlantirish bo'limi boshlig'i Aziza To'raqulova hamda biologiya fanlari doktori, professor Dilfuza Egamberdiyevalar ishtirok etdirdi.

Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston Milliy universiteti tomonidan o'quv ishlari bo'yicha prorektor Fotima Jakipov, tijoratlashtirish va internatsionalizatsiya bo'yicha prorektor Mehmet Arslan, biotexnologiya kafedrasini mudiri Aida Kistaubayevalar qatnashdilar



## Xorijiy hamkorlar safi kengaymoqda.



Binobarin, keyingi yillarda respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarning xorijning nufuzli universitetlari, ilmiy tadqiqot institutlari va tashkilotlari bilan xalqaro aloqalari tobora kengaymoqda. Kuni kecha (19 may 2021 yil) Rossiya Federatsiyasining Ilmiy tadqiqot instituti (MEI) rektori Nikolay Rogalev boshchiligidagi delegatsiya O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi. Mehmonlarni O'zbekiston Milliy universiteti rektori Inom Madjidov, o'quv ishlari bo'yicha prorektor Shuxrat Toshmatov, xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Hikmat Saburov hamda fizika fakulteti deani G'ofurjon Eshonqulovlar kutib olishdi.

Uchrashuvdan maqsad ikki universitet o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolash va maqsadli hamda istiqbolli rejalarni muhokama qilib olishdan iborat. Uchrashuv jarayonida tomonlar o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish va uni samarali, natijali hamda tizimli amalga oshirishga qaratilgan bir qator taklif va mulohazalarni muhokama qildilar. Ayniqsa, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan istiqboli yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash, professor-o'qituvchilarni malaka oshirish, ilmiy stajirovkalarini yo'lga qo'yish, o'quv va ilmiy yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirish, doktorantura hamda mustaqil tadqiqotchilarni tayyorlashda ilmiy laboratoriya hamda ilmiy tadqiqot institutlari imkoniyatlaridan unumli foydalanish masalalari keng muhokama etildi.

O'z navbatida, Nikolay Rogalev ikki universitet vakillari ishtirokida vertual uchrashuv tashkil qilib tomonlar o'zlarini qiziqtirgan o'quv va ilmiy yo'nalishlarda hamkorlik qilishning aniq maqsadlari hamda yo'nalishlarini belgilab olishlari maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidladi.

Uchrashuv yakunida Tomonlar o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashdan manfaatdor ekanliklarini ta'kidlab, yaqin kunlarda Rossiya Federatsiyasining Ilmiy tadqiqot instituti (MEI) bilan Anglashuv Memorandumini imzolashga kelishib oldilar.

## Falsafa fani missiyasi o'z ishini xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyada boshladi.



2021 yil 19 may kuni Qozokiston Respublikasi Kustanay davlat universiteti, KNU, YEGU xamda O'zbekiston, Tojikiston, Ukraina, Kirg'iziston va Belorusiya falsafa fani olimlari bilan hamkorlikda «Falsafa fani missiyasi: falsafaning fan sifatida shakllanish tarixi va uni rivojlanish istiqbollari» mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Ushbu konferensiyaga Denis Anatolevich Kachevich moderatorlik qildi. Shuningdek, anjumanda O'zbekiston Milliy universiteti Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrasini mudiri, professor, falsafa fanlari doktori Nigina Shermuxamedova «Idrokning ratsionalligi falsafasi» mavzusida ma'ruza qildi.

Tojikistonlik spiker professor Farrux Xudoydodzoda Tojik falsafasi haqida, YENU professori K. Medeuova kosmik falsafa haqida kiskacha so'zlab berdi. Kirg'izistonlik spiker esa ommaviy madaniyatning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri haqida o'z nutqida ta'kidlab o'tdi.

Joriy yilning 20-24 may kunlari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrasini mudiri professor Niginaxon Arslonovna, falsafa fakulteti dekani d.f.n. Maxmadizoda Nozim va Tojikiston Milliy universiteti Ontologiya va gnoseologiya kafedrasini mudiri d.f.n. Farrux Begidjon Xudoyzoda "Ontologiya va gnoseologiya" hamda "falsafa va fan metodologiyasi" mavzuida 3-4 kurs talabalari va falsafa mutaxassisligi magistrantlariga dars mashg'ulotlarini olib bordi.



## Hamkorlikning yangi bosqichi.



O'zbekiston Milliy universitetida Novosibirsk davlat universiteti (NDU) hamda Rossiya Federatsiyasi Sibir Bo'limi tarmoq institutlarida ilmiy darajalarga ega bo'lgan ko'plab professor-o'qituvchilar faoliyat olib boradi. Universitet NDU bilan juda yaqin va natijali hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Bugungi kunda NDUda O'zMU, SamDU, QarshiDU, UrDU, BuxDU, QDUlarining 23 nafar talabalari Matematika ta'lim mutaxassisligida grant asosida tahsil olmoqda. Joriy yilida matematika fakulteti talabalari Novosibirsk shahrida bo'lib o'tgan xalqaro matematika olipiadasida ishtirok etib sovrinli o'rinni egallab NDU magistraturasiga tanlovsiz grant asosida o'qishga taklif qilindilar.

Ayniqsa, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab bakalavriat yo'nalishida tahsil oladigan iqtidorli talabalarni o'qishini 2 kursdan so'ng NDUGa ko'chirish va o'qishni mazkur universitetda davom ettirib, diplom olishlari mumkinligi to'g'risida taklif bildirildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, matematika fakulteti dekani, professor Igorъ Marchuk 2 yil oldin NDU magistraturasiga qabul qilingan O'zMU talabalari orasidan 3 nafari universitet qaroriga muvofiq doktoranturaga tavsiya qilinganligi to'g'risida mamnuniyat bilan so'zladi.




# Italiyaning Sababa Security SRL kompaniyasi bilan hamkorlik istiqbollari



So'nggi yillarda O'zbekiston Milliy universitetining nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiytadqiqot muassasalari, ilmiy laboratoriyalar va tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Joriy yilning 20 may kuni Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar fakulteti jamoasi Italiyaning kiberhavfsizlik bo'yicha nufuzli Sababa Security SRL kompaniyasi bilan videomuloqot tarzida onlayn uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda kompaniya direktori Alessio Acheti, kompaniya menedjeri Olyga Orlova va kompaniya asoschilaridan Enriko Orlandi ishtirok etishdi.

Uchrashuv davomida yo'nalish va mutaxassisliklarning fundamental fanlarining namunaviy fan dasturlari, ishchi fan dasturlarini va o'quv materiallari(ma'ruza va laboratoriya ishlarini) birgalikda ishlab chiqish, kompaniyaning yirik olimlari va Italiyaning Verona hamda Genu universitetlari professorlarini mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishga jalb etish, magistratura talabalari va tayanch doktorantlarga hamrahbar bo'lish, xalqaro fondlar orqali talaba va professor-o'qituvchilarning o'quv va ilmiy stajirovkalarini amalga oshirish, Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar fakultetida "Kiberxavfsizlik" (SABABA Security) laboratoriyasini tashkil etishga kelishib olindi. Shuningdek, Italiya universitetlari bilan ERASMUS+ doirasida xalqaro grant loyihalarini tayyorlash va tanlovlarda qatnashish masalasi muhokama qilindi.



## Germaniyaning Toshkentdagi Gyote instituti hamkorlikni kengaytirmoqda.



O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti nemis filologiya kafedrasida uzoq yillardan beri Germaniyaning Toshkentdagi Gyote instituti bilan turli jabhalarda hamkorlik qilib keladi.

Shu hamkorlikni yanada mustaxkamlash maqsadida 28 may kuni Germaniyaning Toshkentdagi Gyote instituti til bo'limi boshlig'i Dildora Muxammadaminova, institut ta'lim soxasida hamkorlik bo'limi xodimlari Dilorom Ismatillaeva, Sayyora To'rakulovalar «Nemis tilini o'qitishni o'rganish» (Deutsch lehren lernen, DLL) dasturini O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Nemis filologiya kafedrasining o'quv dasturiga kiritish» taklifi bilan O'zMU Xalqaro bo'limga tashrif buyurishdi.

Uchrashuvda ikki tamon ham DLL(Deutsch lehren lernen) «Nemis tilini o'qitishni o'rgatish» dasturini universitet nemis filologiya kafedrasining o'quv dasturiga kiritish»ni yangi o'quv yilidan amalga oshirishga kelishib olishdi.



## Istiqbolli loyihalar muhokamasi



Bugungi kunda O'zbekiston Milliy universitetida xorijning nufuzli universitetlari bilan hamkorlikda 12 ta yo'nalish bo'yicha qo'shma ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgan. 2018-2019 o'quv yilida TOP UNIVERSITET tasnifiga ko'ra nufuzli 300 ta oliy o'quv yurtlaridan biri hisoblangan Qozon Federal Universiteti (KFU) va O'zbekiston Milliy Universiteti (O'zMU) hamkorligidagi "Geodeziya va geoinformatika" hamda "Psixologiya" (faoliyat turlari buyicha) yo'nalishlarida qo'shma ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgan edi. Bugungi kunda mazkur yo'nalishda 207 nafar talaba tahsil olmoqda.

Kuni kecha mazkur universitetning boshqaruv ishlari bo'yicha direktori Bagautdinova Nailya, direktor o'rinbosari Polyakova Oksana hamda O'zbekistondagi Tatariston Respublikasi vakili Aydar Axtareevlar universitetga tashrif buyurdi. Mehmonlarni universitet rektori Inomjon Madjidov, xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova hamda O'zbek-Qozon qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha mas'ul Shavkat Sharipovlar kutib oldilar. Uchrashuvda tomonlar asosan hamkorlikni istiqbolli yo'nalishlarda yanada kengaytirish, talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar va mutaxassisliklar tashkil qilish, xalqaro ilmiy loyihalarda hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalarida fikr almashdilar



# Ilm-fanga asoslangan hamkorlik: Fazoviy ma'lumotlardan fazoviy infratuzilmagacha – GISCA 2021.



XV "Markaziy Osiyoda GAT" - GISCA 2021 konferensiyasi 30 maydan 2 iyungacha Olmaota, Bishkek, Dushanbe, Toshkent va Urumchi "HUB" lari orqali joylarda mintaqaviy taqsimlangan holda gibrid formatida bo'lib o'tdi.

Konferensiyada Avstriya - Markaziy Osiyo Geografik axborot tizimlari fanlari markazi, Yevroosiyo va Tinch okeani universiteti tarmog'i, AQSHning Trimble kompaniyasi, Avstriyaning Vena universiteti va Zalsburg universiteti, Germaniyaning Barqaror rivojlanish Ebersvalde universiteti, Belgiyaning Gent universiteti, Xitoy fanlar akademiyasining Shinjon Ekologiya va Geografiya instituti, Gonkong baptist universiteti, Xitoyning Janubiy-G'arbiy fan va texnologiyalar, Shensi pedagogik, Shinjon pedagogik, Syuyfu pedagogik hamda Uxan universitetlari, Al-Farobiy Qozog'iston Milliy universiteti, Qozog'iston Respublikasi Fan va ta'lim vazirligining Geografiya va suv xavfsizligi instituti, Qirg'iziston fanlar akademiyasi Suv va gidroenergetika muammolari instituti, Qirg'iziston Davlat qurilish, transport va arxitektura universiteti, Tojikiston Milliy Fanlar Akademiyasining suv muammolari, gidroyenergetika va ekologiya instituti, Tojikiston Milliy Fanlar akademiyasining "Muzliklarni tadqiq qilish markazi" davlat ilmiy muassasasi, Tojikiston Milliy Fanlar akademiyasining "Muzliklarni tadqiq qilish markazi" davlat ilmiy muassasasi, Tojikiston texnika universiteti, Tojikiston agrar universiteti, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Ulug'bek Astronomiya instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti olimlari o'z ilmiy ishlari bilan qatnashishdi.




# XVII xalqaro rus tili bo'yicha olimpiada g'oliblari taqdirlandi.



A.S. Pushkin nomidagi Davlat rus tili instituti (Rossiya) tomonidan tashkil etilgan chet el fuqarolari uchun rus tili Olimpiadasi 2021 yilning 20 martidan 10 mayigacha bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda dunyoning 70 ta davlatdan jami o'n mingdan ortiq kishi ishtirok etdi. Tanlov testlari onlayn formatda bo'lib o'tdi. Olimpiada doirasida ishtirokchilar bir necha nominatsiyalar bo'yicha bellashdilar: "Rus tili - ta'lim tili", "Rus tili - kasb va yuksalish tili", "Rus tili - ilm fan tili".

O'zbekiston Milliy universiteti xorijiy filologiya fakulteti Rus adabiyotshunoslik kafedrasida 1 bosqich tayanch doktoranti V.I. Pulatova yosh rus olimlari o'rtasida "Rus tili - ilm fan tili" nominatsiyasida ishtirok etdi. Natijalarga ko'ra, V.I. Pulatova ushbu toifadagi 5 ta g'olibdan biri bo'ldi.

Xalqaro Rus tili kuni 6 chi iyunda taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Olimpiadaning barcha g'oliblari esdalik sovg'alari va diplomlar bilan taqdirlandilar.



## Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Isroil qishloq xo'jaligi vazirligi va agrar taraqqiyot vazirligi bilan hamkorlikdagi faoliyatini yanada rivojlantirish.



2021 yilning 9 iyunida O'zbekiston Milliy universiteti va Isroil qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish vazirligi o'rtasida onlayn uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuv ikki mamlakat qishloq xo'jaligi sohasidagi muammolarni har tomonlama tahlil qilishga qaratildi.

Ushbu uchrashuvda O'zbekiston Milliy universiteti vakillari xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova, b.f.d. Lazizaxon G'afurova, Milliy universitet Agroyekobiotexnologiyalar ilmiy markazi rahbari va uning xodimlari bo'lishdi.

Isroil vazirligi vakili Maya Zahavi, tuproq tadqiqot bo'limi boshlig'i, yerni baholash va uzoq zondlash, va mazkur soxadagi yetakchi olimlar ishtirok etdi.

Videomuloqotda asosan tuproqni saqlash va drenajlash, tuproq va uning unumdorligini tekshirish, yerlarni sug'orish masalalari muxokama etildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tomonlar ta'lim sohasida yaqindan hamkorlik kilish, Orolbo'yida tuproq degradatsiyasini yaxshilash, iqlim o'zgarishiga moslashish, dehqonchilik sohasida zamonaviy tadqiqotlar o'tkazish, sug'oriladigan maydonlar va bioxilma-xillikni saqlash sohalarida yer regressiyasi va boshqa masalalarga ham batafsil to'xtalib o'tdilar Uchrashuv yakunida tomonlar navbatdagi onlayn uchrashuv iyul oyida o'tkazilishiga kelishib oldilar




# ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI



Joriy yilning 12 iyun kuni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Milliy universiteti, "O'zbekiston-Frantsiya" do'stlik jamiyati hamkorligida Ilmiy tadqiqotlar sammiti o'tkazildi.

Mazkur sammitni O'zMU xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori R.Shirinova o'z nutqi bilan ochib berdi.

Shundan so'ng, sammitda Bosh prokuraturasi akademiyasi katta prokurori, yu.f.d. A.S.Odinaev, Imom Buzoriy ilmiy tadqiqot markazi bo'lim boshlig'i M.U.Amonov, Innovatsion rivojlanish vazirligi boshqarma boshlig'i o'rinbosari, dotsent A.A.Turg'unov, Favqulotda vaziyatlar vazirligi akademiyasi katta o'qituvchisi, podpolkovnik Sh.N.Muxamedov va M.Yu.Badalbaeva, Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" psixologi S.S.Islamova, O'zMU dotsenti J.K.Yusubov, Jeneva universiteti magistrnati J.T.Xushvaqovlar ilmiy faoliyat va uni yoshlarda shakllantirish yuzasidan ma'ruzalar olib bordilar.



## NICOPA: aniq qishloq xo'jaligi uchun innovatsion yondashuv.



2021-yil 16-iyun kuni O'zbekiston Milliy universitetida NICOPA xalqaro loyihasining "aniq qishloq xo'jaligida yangi va innovatsion kurslar" bo'yicha mintaqaviy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Birinchi qismda S.Seyfullin nomidagi Qozog'iston agrar-texnika universiteti delegatsiyasini xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova, xalqaro reytinglarda ishtirok etish bo'lim boshlig'i Aziza Turakulova va NICOPA loyihasi milliy koordinatori Abdumannap Nasirov kutib oldilar.

Uchrashuvda NICOPA loyihasining rahbari Sara Kitaybekova, loyiha sifati menedjeri Aliya Baitelenova va loyihaning akademik menedjeri Gulmira Satibaldieva qatnashdilar va ushbu tadbirda oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlik imkoniyatlari va istiqbollari muhokama qilindi.

Uchrashuvdan so'ng Geografiya va tabiiy resurslar fakultetida virtual kompyuter laboratoriyasi (VSR) va Paso ofisining rasmiy ochilishi bo'lib o'tdi va yanvar-may oylarida aniq qishloq xo'jaligi mavzusidagi bo'lib o'tgan 72-soatli kurslarga qatnashgan profesor-o'qituvchilar va talabalar halqaro sertifikat bilan taqdirlandilar.



## Qo'shma ta'lim dasturi doirasida istiqbolli uchrashuv.



Xabaringiz bor, 2019-2020 o'quv yilida TOP UNIVERSITET tasnifiga ko'ra nufuzli 300 ta oliy o'quv yurtlaridan biri hisoblangan Qozon Federaluniversiteti (QFU) va O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali (O'zMU Jf) hamkorligidagi "Psixologiya" (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishida qo'shma (3+1) ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgan edi. Bugungi kunda mazkur yo'nalishda 42 nafar talaba tahsil olmoqda. Muvaffaqiyatli bitiruvchi talabalar ushbu qo'shma ta'lim dasturi asosida 2 ta diplom olish imkoniyatiga ega.

Joriy yilning 17-iyun kuni Qozon Federal universiteti rektori Gafurov Ilshat, Qozon Fedral universitetining tashqi aloqalar bo'yicha prorektori Alishyev Timirxan, Menejment, iqtisodiyot va moliya instituti direktori Bagautdinova Nailya O'zMU Jizzax filialiga tashrif buyurdi. Mehmonlarni universiteti rektori Inom Madjidov, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Sarvarxon Buzruksxonov, O'zMU Jizzax filiali direktori Olim Turakulovlar kutib oldilar.

Uchrashuvda tomonlar kelgusida hamkorlikning ushbu qo'shma ta'lim dasturini yanada kengaytirish hamda xalqaro ilmiy loyihalarda hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalarida fikr almashdilar.



# YUNESCO BILAN ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK



O'zbekiston Milliy Universitetida joriy yilning 21 iyun kuni YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti hamkorligida "Oliy ta'lim va ilm-fan: tanqidiy tahlil va siyosiy yondashuv" mavzusidagi onlayn-uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirni O'zMU Xalqaro aloqalar bo'yichap prorektor Raima Shirinova ochib berdi.

Tadbirda YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi xodimlari, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va yosh olimlari, O'zbekiston Milliy universitetining tadqiqotchilari va yosh olimlari ishtirok etdilar.



# O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI – ETVOSH LORANDA UNIVERSITETI O'RTASIDAGI MEMORANDUM: O'ZARO HAMKORLIKNING YA'NGI SAHIFASI



Joriy yilning 21 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Vengriyaning O'zbekistondagi elchixonasi hamkorligida O'zbekiston va Vengriya rektorlarining ilk forumi bo'lib o'tdi.

Xalqaro forumda ikki mamlakatning yuqori martabali davlat hokimiyati vakillari va 30 ga yaqin nufuzli oliy ta'lim muassasasi rektorlari, prorektorlari ishtirok etdi.

Forum doirasida ikki mamlakat o'rtasida qo'sh diplomlar berish imkoniyatiga ega bo'lgan qo'shma ta'lim dasturlarini yaratish, venger mutaxassislarini O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarida qisqa muddatli ma'ruzalarga taklif qilish, Vengriya OTM bazasida o'qituvchilarning malakasini oshirish, qo'shma ilmiy nashrlar, talabalar va o'qituvchilar almashinuvini yo'lga qo'yish, Vengriya universitetlari bilan kimyoviy texnologiyalar, energetika, mashinasozlik, sanoat texnologiyalari, biotexnologiya, sug'orish va suv resurslari, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, farmakologiya, farmatsevtika sohalarida hamkorlik o'rnatish va rivojlantirish masalalari muhokama doirasida bo'ldi.



## «O‘zbekiston Respublikasida Durban deklaratsiyasi va harakatlar dasturini amalga oshirish» mavzuidagi davra suhbatlari



Joriy yilning 29 iyun kuni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tomonidan «O‘zbekiston Respublikasida Durban deklaratsiyasi va harakatlar dasturini amalga oshirish» mavzusidagi onlayn va oflayn davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi.

Mazkur tadbirda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi, Milliy universitet va Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazi rahbariyati va mas‘ul xodimlari, professor o‘qituvchilar hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori, mamlakatimizdagi turli vazirlik va idoralarning mas‘ul xodimlari ishtirok etishdi.

Tadbir davomida Durban deklaratsiyasi va Harakatlar dasturi xalqaro hamjamiyatni milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda irqchilikka qarshi kurashishga chaqiradigan xalqaro hujjatlardan biri ekanligi va uni o‘rganish jamiyatga tadbir etish “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning maqsad va vazifalariga ham to‘la mos kelishi ta‘kidlandi. Deklaratsiyasi va Harakatlar dasturi Qo‘mita tomonidan batafsil o‘rganilib, bu bo‘yicha xalqaro va milliy tajriba soha ekspertlari bilan birgalikda ko‘rib chiqilayotganligi ma‘lum qilindi.



# PeopleHive (AQSH) tashkiloti bilan XALQARO HAMKORLIK.



2021 yilning 30 iyun kuni PeopleHive (AQSH) tashkilotining ijrochi direktori Pavan Abraham (Pavan Abraham) boshchiligidagi delegatsiya O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi.

Delegatsiyani O'zMU Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Rahima Shirinova va Xorijiy talabalar bilan ishlash bo'limi vakillari kutib olishdi.

Ushbu tashrifning asosiy maqsadi chet el fuqarolarini universitetda o'qish uchun jalb qilish, bakalavriat va aspirantlarning akademik mustaqilligini tashkil etish uchun Hindiston va Evropa universitetlari bilan aloqalarni o'rnatishga yordam berish va tibbiyot, biznes, axborot texnologiyalari va muhandislik sohasidagi etakchi xorijiy universitetlar bilan qo'shma ta'lim dasturlarini ochishdir. Uchrashuv yakunida o'zaro manfaatli faoliyat sohalarida hamkorlik to'g'risida kelishuvga erishildi.



## O'zMU – BMTU: o'zaro manfaatli hamkorlik sari.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida bo'lib o'tgan Oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida islohotlar qamrovini oshirish, jumladan xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, qo'shma ta'lim dasturlari asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida fikrlar bildirilgan edi. Yig'ilish davomida davlatimiz rahbari ustuvor vazifalarni asosiylaridan biri qilib, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish deya ta'kidladilar.

Har qanday rivojlanish mezonida o'zaro tajriba almashish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalasi turadi. Bugun Oliy ta'lim oldida turgan dolzarb vazifalarning ijrosi yuzasidan O'zbekiston Milliy universiteti qator hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirmoqda.

Ayni kunlarda universitet rektori professor Inom Madjidov boshchiligidagi delegatsiya Belarus davlatida bo'lib turibdi. Avval xabar berganimizdek, delegatsiya tashrifidan maqsad Belarus Milliy texnika universiteti (bu OTM QS dunyo reytingida 295 o'rinni egallab turibdi) bilan kelishuv va o'zaro hamkorlik shartnomasini imzolash va uni amalga tadbiq etishdan iborat. Bu dastur doirasida hujjatlar rasmiylashtirishning birinchi bosqichi yakunlandi. Inom Madjidov boshchiligidagi o'zbekistonlik delegatsiyani BMTU rektori Andrey Korol boshchiligidagi jamoa va universitetning A.D.Saxarov nomidagi Xalqaro davlat ekologiya instituti jamoasi vakillari kutib olishdi.



# O'zbekiston Respublikasi OTM delegatsiyasining BMTUga tashrifi (reportaj)




2021-yil 2-iyul, juma kuni Belarus Milliy texnika universiteti O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari delegatsiyasini qabul qildi.

Delegatsiya tarkibidan O'zbekiston Mirzo Ulug'bek Milliy universiteti, Toshkent Davlat Transport universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va Sport universiteti, Toshkent arxitektura-qurilish instituti vakillari joy olgan.

Uchrashuv avvalida Belarus Milliy texnika universiteti rektori Sergey Xaritonchik faxriy mehmonlarga qutlov so'zi bilan murojaat qildi. – Hamkorligimiz uchun ishonchli poydevor yaratgan Belarus Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi prezidentlari Aleksandr Grigorevich Lukashenko va Shavkat Miromonovich Mirziyoevga katta minnatdorlik bildiraman.

Yana bir Inom Urishevich Madjidov va Igor Vasilevich Karpenkoga muhandislik-texnik ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha hamkorlikdagi keng ko'lamli tashabbuslarimizni doimiy qo'llab-quvvatlagani uchun ham o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Yaqindagina mehmondo'st Toshkentga ilk bor tashrif buyurdim, yendi yesa yetakchi texnika universitetlari bilan shartnoma imzolash vaqti keldi.




# O'zbekiston Milliy universiteti va Xolon texnologiyalar instituti rektorlarining virtual uchrashuvi



Joriy yilning 8 iyul kuni Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va Xolon texnologiyalar instituti rektorlari va prorektorlari hamda O'zbek-Isroil qo'shma fakulteti dekanlarining virtual uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Mazkur uchrashuvda ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasida o'quv jarayoni yakuni, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik va istiqbolda olib boriladigan ishlar yuzasidan fikr almashildi.



## Evolyutsion fanlar bo'yicha aloqalar kengaytirilmoqda.



Joriy yilning 10 iyul kuni Montpellier Evolyutsion fanlar Ilmiy instituti (Fransiya) tashkilotining ilmiy tadqiqotchilari Sebastʻyan Joanin va Lukas Dugerdil boshchiligidagi delegatsiya O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi.

Delegatsiyani O'zMU Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova, Xalqaro xamkorlikni tashkil etish bo'limi boshlig'i G'olibjon Yoziyev, Xalqaro reytinglarda ishtirok etish bo'limi boshlig'i Aziza Turakulova, AQSh Mikrobiologiya jamiyatining O'zbekistondagi elchisi, YuNESKOning fan va texnologiyalari bo'yicha tarmog'ining (STEPAN) O'zbekistondagi Milliy muvofiqlashtiruvchisi, O'zbek-Xitoy ko'shma laboratoriyasi rahbari, O'zbekiston Milliy universiteti professori, biologiya fanlari doktori Dilfuza Egamberdieva va Biologiya fakulteti tayanch doktoranti Jaxongir Alimov kutib oldilar.



# OZARBAYJON DELEGATSIYASINING O'ZMUGA TASHRIFI



«Markaziy va Janubiy Osiyo: Mintaqaviy bog'liqlik. Tahdid va imkoniyatlar» mavzuida yuqori darajadagi Xalqaro konferentsiyada ishtirok etish uchun O'zbekistonga tashrif buyurgan Ozarbayjon delegatsiyasi joriy yilning 15 iyul kuni O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi.

Mazkur uchrashuvda «Topchubashov Center» tahliliy markazi direktori Risuf Guseynov va Ilъgar Velezade, Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Xikmat Saburov, Xalqaro hamkorlikni tashkil etish bo'limi boshlig'i G'olibjon Yoziyev, Xalqaro reytinglarda ishtirok etish bo'limi boshlig'i Aziza Turakulovalar ishtirok etdilar.

Dastlab uchrashuvda universitetning faoliyatiga bag'ishlangan videorolik taqdim etildi, shuningdek, o'quv, ilmiy va xalqaro faoliyati bo'yicha mehmonlarga axborot berildi.

Uchrashuv davomida Risuf Guseynov o'zining rahbarligidagi tahliliy markaz faoliyati bilan tanishtirib hamkorlikda amalga oshirish mumkin bo'lgan loyihalar xususida to'xtalib o'tdi. Uchrashuv yakunida mehmonlarni universitet axborot resurs markazi faoliyati bilan tanishtirish maqsadida kichik ekskursiya tashkil etildi.



## Mediamakondagi yangi hamkorlik.



Bugun, 22 iyul kuni O'zbekiston Milliy universitetiga "Diplomatic world" jurnali ijrochi direktori Barbara Ditrix tashrif buyurdi. Mazkur delegatsiyani O'zbekiston Milliy universiteti rektori Inom Madjidov va prorektorlar kutib oldilar.

Ma'lumot uchun: "Diplomatic world" yilda to'rt marta raqamli va bosma shaklda chop etiladigan xalqaro jurnal, jahon siyosati, diplomatiya, biznes, moliya, san'at va madaniyat masalalarini yoritadi.

Uchrashuv mobaynida universitet rektori Inom Madjidov O'zbekistonning ta'lim tizimi va undagi asosiy o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot berdi. So'ngi yillarda oliy ta'lim tizimidagi islohotlarga batafsil to'xtalib, mamlakatimizda oliy ta'lim qamrovi kengayib borayotganligini ta'kidlab o'tdi.

Tashrif doirasida ijrochi direktor Barbara Ditrix O'zbekistondagi ta'lim tizimidagi yangiliklar bilan qiziqib, "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzuidagi xalqaro konferentsiya o'zgacha taassurot qoldirganligi hamda turli tadbirlarda O'zbekiston yoshlaridagi ishtiyoq va shijoatni kuzatganligini hamda bu uni ruhlantirganligini bildirdi. "Diplomatic world" jurnali ijrochi direktori Barbara Ditrix O'zMU haqida Yevropaning bu nufuzli jurnalida maqola chop etishni rejalashtirilganini va shuning uchun shaxsan o'zi O'zMUga intervyu olish maqsadida kelganini bildirdi.



# Archarya instituti (Hindiston) delegatsiyasi O'zMUGa tashrif buyurdi.



Joriy yilning 2 avgust kuni O'zbekiston Milliy universiteti rektori Inom Madjidov Hindistonning Archarya instituti direktori Visheish Chandrashekar boshchiligidagi delegatsiyasini kutib oldi.

Uchrashuv davomida Archarya instituti va O'zbekiston Milliy universiteti professor-o'qituvchilari va talabalari o'rtasida biznes inkubator va startap loyihalarini yo'lga qo'yish, talabalarning qisqa muddatli amaliyotlarni tashkil qilish, professor-o'qituvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish borasida takliflar muhokama qilindi.

Uchrashuv mobaynida Bioinjeneriya va Iqtisodiyot sohalarida hamkorlik qilish masalalari ham ko'rib chiqildi. Shuningdek, ikki oliy ta'lim muassasasining xalqaro aloqalar bo'limi hamkorlik yo'nalishlarini yanada batafsilroq ko'rib chiqishga kelishib olishdi.



## Biologiya sohasida xalqaro aloqalar kengaymoqda.



Joriy yilning 2 avgust kuni Daugavpil universiteti Biosistematika instituti (Latviya) delegatsiyalari - biologiya fanlari doktori Aleksandr Anischenko va biologiya fanlari nomzodi Aleksey Shavrin O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi. Eslatib o'tamiz, O'zbekiston Milliy universiteti va Daugavpil universiteti o'rtasida 2020 yil avgustda hamkorlik memorandumini imzolangan edi.

Delegatsiyani O'zMU Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori Raima Shirinova, Biologiya fakulteti dekani Toxtasin Abduraxmonov, Xalqaro reytinglarda ishtirok etish bo'limi boshlig'i Aziza Turakulova kutib olishdi.

Uchrashuv davomida Biologiya sohasida hamkorlikni rivojlantirish, dala ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy jurnallarda hamkorlikda maqolalar chop etish, qo'ng'izlarni o'rganish va namunalarni olish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida 18 avgust kuni Biologiya fakulteti professor-o'qituvchilari va doktorantlari uchun onlayn-seminar tashkil etilishiga kelishildi.

## Elabuga instituti vakillari bilan virtual uchrashuv.



Joriy yilning 5 avgust kuni O'zbekiston Milliy universiteti va Qozon Federal universiteti (Rossiya) Yelabuga instituti vakillari bilan virtual uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishida malakali pedagoglarni tayyorlash bo'yicha hamkorlik qilish, talabalar akademik almashinuv yo'lga qo'yish hamda ta'limiy va madaniy amaliyotni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi.

Muzokaralar yakunida filologlar bilan kelgusi uchrashuvda hamkorlik yo'nalishlarini aniqlab olishga kelishib olindi.

## Erasmus + Milliy Ofisi (NEO) bilan hamkorlik seminari.




Universitetda xalqaro loyihalarning mavjudligi, xalqaro loyihalarda professor-o'qituvchilar ishtiroki, loyihalardan universitetga kelib tushadi mablag' miqdori, talabalarning xalqaro ilmiy loyihalarda ishtiroki universitetning xalqarolashuv darajasini aniqlaydigan me'zonlardan hisoblanadi. Xalqaro reytinglarda ishlash bo'limining npavbatdagi onlayn seminari xuddi shu masalalarga qaratildi.

Onlayn seminarda Erasmus + Milliy Ofisi (NEO) koordinatori Aziza Abdurahmonova, Qudratxon Bahodirov va universitet professor-o'qituvchilari, yosh tadqiqotchi-doktorantlar hamda xalqaro aloqalar bo'limi xodimlari ishtirok etdilar.

Seminarda Erasmus + dasturining 2021 – yilga mo'ljallangan yangi tanlov yo'nalishlari bo'yicha ma'lumot berildi. SBHE, Erasmus Mundus dasturlari, xalqaro kredit mobilligi, Erasmus Mundus Joint Masters, Erasmus Mundus dasturlarini tayyorlash, Erasmus Mundus Design Measures, Jean Monnet loyihalarini yo'lga qo'yish bo'yicha batafsil ma'lumot berildi.

Seminar davomida ishtirokchilar o'zlarining qiziqtirgan savollariga javoblar olishdi. Shuningdek, Erasmus + Milliy Ofisi (NEO) koordinatori Aziza Abduraxmonova tomonidan bugungi kunda universitetda mavjud loyihalarni bajarilish holati, o'tkazilgan monitoring natijalari, yangi loyihalarda ishtirok etish uchun bir qancha foydali takliflar va amaliy tavsiyalar berdi.



## Times Higher Education Rankings vakillari bilan uchrashuv.




Bugungi kunda universitetda dunyoning eng nufuzli universitetlar reytingidan joy olishga qaratilgan bir qancha amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda ya'ni nufuzli jurnallarda maqola yozish, maqolalarga iqtiboslikni oshirish, xalqaro ilmiy loyihalar sonini ko'paytirish, xorijlik professorlarni o'quv jarayoniga jalb qilish, xorijiy talabalarni qabul qilish kabilar.

Xususan, Times Higher Education va QS World University Ranking agentliklari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa olib borilib universitet reytingini oshirishga qaratilgan master klass, seminar-treninglar olib borilmoqda.

12 avgustda Times Higher Rankings Data Points platformasi koordinatori Lachin Italmazova bilan onlayn-uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda xalqaro aloqalar bo'limi prorektori Raima Shirinova va xalqaro reytinglarda ishtirok etish bo'limi boshlig'i Aziz Turakulova qatnashdilar.

Mazkur uchrashuvda O'zbekiston Milliy Universitetining xalqaro reytinglarda o'z pozitsiyasini egallashda eng muhim me'zonlarga batafsil to'xtalib o'tilib, universitetning bugungi natijalari analitik tahlil qilindi. Onlayn uchrashuvda Data Points platformasi bilan bevosita hamkorlik olib borish, iqtibos va maqolalarning universitet reytingini ko'tarishdagi o'рни, universitetning dunyo miqyosidagi brendini oshirish chora-tadbirlari borasida fikr yuritildi.



## Polshaning Lublin texnologik universiteti delegatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetida.



Bugun, 17 avgust kuni professor Marek Milosz boshchiligidagi Polshaning Lublin texnologik universiteti delegatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi. Delegatsiyani universitet rektori Inom Madjidov va xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova kutib oldilar.

Ta'kidlash joizki, 2019 yilda universitetlar o'rtasida memorandum imzolangan bo'lib, unga asosan akademik va ilmiy hamkorlik olib borilmoqda, Erasmus + loyihalari amalga oshirilmoqda va ko'plab Polsha jamg'armalari bilan ish olib borilmoqda. Polshaning Lublin texnologiya universiteti professor-o'qituvchilari ko'magida o'quv mashg'ulotlar yo'lga qo'yilgan, qo'shma konferentsiyalar o'tkazilib kelinmoqda, hammualliflikda ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilmoqda.

Universitet professori Marek Milosz, axborot texnologiyalari sohasida yetakchi mutaxassis sifatida hamkorlikda amalga oshiriladigan CATAMARAN magistrlik dasturi hamda 3 D Digital Silk Road (birgalikda UrDU hamkorlar bilan, SAMGU, ChSPI) loyihalari natijalarini yuqori baholadi.




# O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI VA ELSEVIER O'RTASIDAGI HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH YO'LIDA



2021 yilning 16 avgust kuni O'zbekiston Milliy universiteti Xalqaro aloqalar bo'limi tashabbusi bilan Elsevierning Markaziy Osiyo va Ozarbayjondagi mintaqaviy vakili va tahliliy yechimlar rahbari Kirill Ivanov bilan onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi.

Ushbu uchrashuvda quyidagi masalalar yuzasidan muzokaralar olib borildi:

- Elsevier vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqildi (Scopus, SciVal, Digital Commons);
- Scopus ma'lumotlar bazasiga universitetning "O'zMU xabarlarini" jurnalini kiritish;
- Professor-o'qituvchilar va xodimlar uchun onlayn seminar va vebinarlar o'tkazish;
- Universitet va Elsevier kompaniyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatish.



# XORIJIY TALABALARGA DIPLOMLAR TOPSHIRILDI



2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston Milliy universitetini Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon Respublikasi va Turkiya davlatidan 17 nafar xorijiy fuqarolar - 8 nafar bakalavriat va 9 nafar magistratura bosqichini tamomladi.

Joriy yilning 16 avgust kuni universitetning xorijiy bitiruvchilariga Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova va Xorijiy talabalar bilan ishlash bo'limi xodimlari tomonidan bakalavr va magistrlik diplomlari topshirildi.

Ma'lumot o'rnida: Hozirgi kunda universitetda 16 ta davlatdan xorijiy fuqarolar tahsil olmoqda.



## O'zbekiston Milliy universitetining THE CAMPUS+ kompaniyasi vakili bilan onlayn-uchrashuv.



2021-yil 17-avgust kuni O'zbekiston Milliy universiteti xalqaro bo'limi tashabbusi bilan THE CAMPUS+ kompaniyasi vakili, Osiyo mintaqasidagi mintaqaviy obuna direktori Milan Takur bilan onlayn-uchrashuv tashkil etildi.

Mazkur uchrashuvda O'zbekiston Milliy universitetining halqaro aloqalar bo'yicha prorektor Raima Shirinova va xalqaro reytinglarda ishtirok etish bo'limi boshlig'i Aziza To'raqulova ishtirok etdilar.

Onlayn-uchrashuvda THE CAMPUS+ platformasi tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar, xususan, universitetning xalqaro reytinglardagi mavqeini rivojlantirish istiqbollari, shuningdek, ushbu platformadan foydalanib, universitetning xalqaro miqyosida obro'sini oshirish haqida ma'lumot berildi.

Virtual uchrashuvda quyidagi yo'nalishlarda muzokaralar olib borildi:

- THE CAMPUS+ platformasi, uning maqsadlari va tizimning tarkibiy qismlari;
- THE CAMPUS+ platformasi tomonidan O'zbekiston Milliy Universitetini akademik tanilishida platforma imkoniyatlari;
- Universitet THE CAMPUS+ning faol hamkori bo'lish uchun qanday harakatlarni amalga oshirishi kerak.

Uchrashuv ishtirokchilari THE CAMPUS+ platformasiga a'zo bo'lish, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida fikr almashdilar.






**QS GLOBAL EDUCATION NEWS (QS-GEN)** jurnalining 2021 yil avgust sonining 54-sahifasida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti haqida "NUU expands global capacity through joint educational programmes" mavzusida maqola chop etildi.

Maqolada O'zbekiston milliy universiteti mamlakatning yetakchi ta'lim muassasasi sifatidagi pozitsiyani qo'llab-quvvatlash maqsadida olib borayotgan xalqaro hamkorlik tashabbuslari va xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi qo'shma dasturlar haqida ma'lumot berilgan.

Bunday tashabbuslardan biri sifatida Tomsk Davlat niversiteti, Qozon Federal Universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti, Isroil davlatining Xolona Texnologik instituti, Belorussiya Davlat Universiteti, xamda Saxarov Halqaro Davlat Ekologik Insitutlari bilan xamkorlikda amalga oshirilgan magistratura va bakalavriat dasturlarini misol keltirishimiz mumkin.

Shu ma'noda, bunday xalqaro miqyosdagi jurnalda O'zbekiston Milliy universiteti haqidagi maqolaning chop etilishi va butun dunyo bo'ylab yoyilishi universitetning dunyo miqyosdagi obro'sining oshishiga ulkan hissa qo'shadi va xalqaro reytinglarda bundan ham yuqori o'rinlarni egallashiga turtki beradi.




# O'zMU "Diplomatic World" xalqaro jurnali nigohida.



Xabaringiz bor, joriy yilning 22 iyul kuni Belgiyaning "Diplomatic world" jurnali ijrochi direktori Barbara Ditrix O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurgan edi.

O'zMU rektori Inom Madjidov "Diplomatic world" jurnali ijrochi direktorining O'zbekistonning ta'lim tizimi to'g'risida g'arb davlatlari ishbiarmon doiralarini xabardor qilish hamda O'zbekiston Milliy universitetini xalqaro hamjamiyatiga tanitish maqsadida "Diplomatic World" jurnalida maqola chop etish taklifini mamnuniyat bilan qabul qilib, jurnalning keyingi sonida ushbu maqolani chop etilishi kelishib olingan edi.



"Diplomatic World" xalqaro jurnalining O'zbekiston mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlangan maxsus sonining elektron nashri keng jamoatchilikka taqdim etildi.

Shuningdek, O'zMU rektori, professor Inom Madjidovning "Evident reforms in the higher education system of Uzbekistan in the period 2017-2021" sarlavhasi ostida maqolasi chop etildi. Unda O'zbekistonning ta'lim tizimi va undagi asosiy o'zgarishlar, xususan, so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlari haqida fikr yuritilgan.

"Diplomatic World" xalqaro jurnalining ushbu maxsus soni xorij jurnalistlar tomonidan tez kunda universitetga taqdim etilishi kutilyapti.



## Tarixiy joylarga ekskursiya.



Xabaringiz bor, noyabr oyi boshida Qirg'iziston Respublikasining Osh davlat universitetidan akademik mobillik dasturi doirasida 20 nafar talabalar O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya, Kimyo,

Tarix, Iqtisodiyot va Jurnalistika fakultetlariga o'qishga keldilar. Talabalar universitetdan ta'lim olish bilan birgalikda, respublikamizning tarixiy joylari, urf-odat va qadriyatlarini aks ettiruvchi joylarga ham ekskursiyalar tashkil qilinmoqda.

Shu munosabat bilan, universitetning Xalqaro talabalar bilan ishlash bo'limi boshchiligida talabalar Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Ko'kaldosh madrasasi kabi madaniy va tarixiy obidalar bilan tanishdilar.



# Ikkinchi Rossiya-O'zbekiston ta'lim Forumiga start berildi.




2021 yilning 16-17 noyabr kunlari M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida Rossiya rektorlar Kengashining tashkiliy ko'magida Ikkinchi Rossiya-O'zbekiston ta'lim Forumi bo'lib o'tmoqda. Forumda Rossiya va O'zbekistonning vazirlik va tashkilotlar rahbarlari, ikki davlatning Fanlar akademiyasi prezidentlari hamda ikki davlat yetakchi OTMlarining 100 dan ziyod rektorlari qatnashmoqda.

Forumning asosiy mavzulari quyidagilar:

- Kadrlar tayyorlash sohasida ikki davlat hamkorligining asosiy yo'nalishlarini muhokama qilish;
- Rossiya va O'zbekiston davlatlari o'rtasidagi ilmiy hamkorlik;
- Ikki tomonlama hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda, O'zbekistonda rus tilini o'qitish va targ'ib etish hamda gumanitar loyihalarni amalga oshirish;
- Rossiya va O'zbekiston ta'lim tizimlarini maktabgacha ta'lim va tarbiya darajasidan oliy ta'limgacha integratsiyalash tajribasi va istiqbollari.

Forumda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori, professor Inom Madjidov va Rossiya Rektorlar kengashi prezidenti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti rektori, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi Viktor Sadovnichiyalar moderadorlik qilmoqdalar.



## Forum doirasida O'zbekiston Milliy universiteti va Oltoy Davlat universiteti o'rtasida memorandum imzolandi.



Avval xabar berganimizdek, bugun M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universitetida Ikkinchi Rossiya-O'zbekiston ta'lim Forumi bo'lib o'tmoqda.

Unda ikki davlatning oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik memorandumlari imzolanishi ko'zda tutilgan.

Forumda O'zbekiston Milliy universiteti va Oltoy Davlat universiteti o'rtasida ta'lim va ilmiy sohada hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik memorandumi imzolandi.

Unda ikki oliy ta'lim muassasalari o'rtasida talaba va professor-o'qituvchilar almashinuvi, xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish, hamkorlikda ilmiy va o'quv nashrlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.



# Globalashuv sharoitida yoshlarning bag'rikengligi



Ma'lumki, 1995-yil BMT tomonidan 16-noyabr Xalqaro tolerantlik – (bag'rikenglik) kuni deya e'lon qilinib, bu xususda umumjahon miqyosida maxsus deklaratsiya ham qabul qilingan edi. O'zbekiston 185 ta davlat qatorida ushbu deklaratsiyaga qo'shilgan holda mamlakatda millatlararo totuvlik va barqarorlikni ta'minlashdagi muhim omil bo'lgan bag'rikenglik tamoyillarini ijtimoiy-ma'naviy hayotga tadbiiq etish borasida muhim amaliy tadbirlarni amalga oshirilmoqda.

Xususan, shu yili noyabr oyining o'rtalari butun respublikada "Bag'rikenglik haftasi" (15-21 noyabr) deya e'lon qilinib, bu borada mamlakatimiz bo'ylab ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunday tadbirlardan biri 17-noyabr kuni O'zbekiston Milliy universitetida bo'lib o'tdi. Universitet huzuridagi "Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik" ilmiy markazi tashabbusi bilan shu kuni "Globalashuv sharoitida yoshlarning bag'rikengligi" mavzusida ilk bora Markaziy Osiyo oliy o'quv yurtlari yosh o'qituvchilari, tadqiqotchilari va talabalarning xalqaro onlayn davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Davra suhbatida universitet, tarix fakulteti rahbariyati, ilmiy markaz a'zolari, universitet professor-o'qituvchilari, yosh o'qituvchi, tadqiqotchi, magistr, bakalavr talabalar ishtirok etdilar. Mazkur davra suhbatida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston tomonidan so'z olgan yoshlar o'z chiqishlarida millatlararo munosabatlarni mustahkamlashda bag'rikenglik tamoyilining tutgan o'rni, globalashuv sharoitida yoshlar ta'lim-tarbiyasida bag'rikenglik, ularni yot g'oyalardan asrash masalalari, islom va bag'rikenglik va qator boshqa dolzarb mavzularga o'z e'tiborini qaratdilar.




## Qozon Federal universiteti professor- o'qituvchilari O'zMUda.



O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek-Qozon qo'shma ta'lim dasturi doirasida Qozon Federal universitetidan professor-o'qituvchilar delegatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi.

Tashrifdan ko'zlangan maqsad "Geodeziya va geoinformatika" ta'lim yo'nalishi talabalariga mutaxassislik fanlaridan an'anaviy shaklda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, bitiruv malakaviy ishlari mavzularini ko'rib chiqishdan iborat.

Shuningdek, talabalarga Qozon Federal universiteti Boshqaruv, iqtisod va moliya instituti Geografiya va kartografiya kafedrasida professori, geografiya fanlari doktori Panasyuk Mixail, Geografiya va kartografiya kafedrasida mudiri, geografiya fanlari nomzodi Pudovik Yelena hamda kafedra assistenti Shaymardanova Valeriyalar tomonidan "Geoinformatika", "Geoinformatsion tizimlar", "Geoinformatsion xaritalash", "Landshaftli xaritalash", "Iqtisodiyot va boshqaruvda geoinformatsion texnologiyalar", "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tdilar.



# “Zamonaviy matematika va uning tatbiqlari” mavzuidagi xalqaro konferensiya



O‘zbekiston Milliy universiteti V.I.Romanovskiy nomidagi O‘zR FA Matematika instituti, O‘zR FA Yadro fizikasi instituti, Steklov nomidagi Rossiya FA Matematika instituti va Natural Sciences Publishing (AQSh) bilan hamkorlikda 2021-yil 19-21-noyabr kunlari "Zamonaviy matematika va uning tatbiqlari" (ICCMA2021) mavzuida xalqaro konferensiya tashkil etildi.

Ilmiy anjumandan ko‘zlangan maqsad zamonaviy matematikaning asosiy yo‘nalishlari va uni qo‘llashning bugungi holati va rivojlanish istiqbollarini muhokama qilish, o‘zaro tajriba almashish, konferensiya mavzulariga iqtidorli yoshlarni keng jalb etish, turli mamlakatlar olimlari o‘rtasida yaqin ilmiy aloqalarni o‘rnatishdan iborat.

Ushbu xalqaro konferensiya zamonaviy matematikaning turli yo‘nalishlaridagi so‘nggi yangiliklar va uning qo‘llanilishi haqida xabardorlikni oshirish uchun bebaho platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Anjumanda dunyoning turli burchaklaridan kelgan, xususan, Germaniya, AQSh, Hindiston, Turkiya, Misr, Rossiya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Buyuk Britaniya, Avstriya va Yaponiya davlatlarining taniqli olimlari tomonidan ma‘ruzalar tinglandi. Xalqaro konferensiya 21-noyabr kuniga qadar davom etadi.

*Ma‘lumot uchun: O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan ICCMA2021 olimlar va tadqiqotchilarning dunyoning boshqa vakillari o‘rtasidagi obro‘cini oshirish, shuningdek, bilim va tajribani tarqatishda ishtirok etish uchun ideal bosqichdir.*



# XALQARO YOSHLAR MAKTABI O'Z ISHINI BOSHLADI



2021 yilning 20-noyabr kuni Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida MDHga a'zo davlatlarning gumanitar hamkorlik bo'yicha davlatlararo jamg'armasi ko'magida "Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati" mavzuida Xalqaro yoshlar maktabining ochilish tadbiri o'tkazildi.

Xalqaro yoshlar maktabida M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Milliy tadqiqot Tomsk davlat universiteti, Belarus davlat universiteti va Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universitetidan xorijiy talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Aytish joizki, xalqaro yoshlar maktabi oliy ta'lim muassasasining xalqaro ta'lim standartlariga o'tish yo'lida jiddiy qadamlar qo'yayotganligidan dalolatdir. Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini chuqur o'rganayotgan va shu sohada faoliyat olib borayotganlar uchun mazkur maktab qo'shimcha bilimlarni olish, yetakchi olimlar va amaliyotchilar bilan uchrashuvlar orqali mustaqil ishlar olib borishga imkoniyat yaratib beradi.

Xalqaro yoshlar maktabining dastlabki kunida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tarixi va faoliyati bilan tanishtirildi, xususan, universitet kutubxonasi, muzeylar va fakultetlarga tashrif tashkillashtirildi.



## Hamkorlik memorandumi doirasidagi istiqbolli uchrashuv.



Avval xabar berganimizdek, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bilan hamkorlik memorandumi imzolangan edi.

Ushbu memorandumning maqsadi ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot faoliyatlari yuzasidan ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishdan iborat.

Joriy yilning 23-noyabr kuni mazkur hamkorlik memorandumi doirasida O'zMU Axborot xizmati, Ijtimoiy fanlar va Jurnalistika fakultetlarining bir guruh vakillari O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetiga tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot xizmatlari mediastudiyada hamkorlikda ishlash, O'zMU Jurnalistika fakulteti talabalar amaliyotini Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot xizmatida o'tashga kelishib olindi.

Shu bilan bir qatorda, tegishli yo'nalishlar bo'yicha o'zaro masofaviy ta'lim tizimini joriy etish, ilmiy va amaliy yutuqlarni amaliyotga tadbiiq etish, professor-o'qituvchilar hamda talabalar almashinuvi va shu kabi masalalar muhokama qilindi. Hozirgi kunda ikki universitet hamkorlikda o'quv qollanmalar, darsliklar chop etishyapti, ochiq dars mashg'ulotlari, seminar-treninglar tashkil etilyapti.



# Yangi istiqbolli yo'nalishlar muhokama qilindi.



Joriy yilning 24-noyabr kuni Rossiya Federatsiyasi huzuridagi Moliya universiteti ijtimoiy soha sug'urtasi va iqtisodiyoti departamenti rahbari Siganov Aleksandr Andreevich universitetga tashrif buyurdi.

Tashrifdan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston Milliy universiteti bilan Rossiya Federatsiyasi huzuridagi Moliya universiteti hamkorlikning yangi yo'nalishlarini muhokama qilish hamda mazkur universitet bilan yo'lga qo'yilgan qo'shma ta'lim dasturida tahsil oladigan talabalar va o'qituvchilar bilan fikr almashishdan iborat.

*Ma'lumot o'rnida: Siganov Aleksandr Andreevich Rossiya Federatsiyasi huzuridagi Moliya universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma dasturda tahsil oladigan talabalarga Sug'urta fanidan dars beradi.*



# HAMKORLIK DOIRASIDAGI UCHRASHUV



2021-yilning 24-noyabr kuni Qozon Federal universiteti (QFU) Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori Nailya Gumerovna Bagautdinova O`zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida O`zbek-Qozon qo`shma dasturi talabalari bilan uchrashdi.

Shuningdek, QFU Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori Nailya Bagautdinova fakultet dekanlari va bo`lim boshliqlari bilan QFU xalqaro reytinglar natijasi, universitet reytingini oshirish strategiyasi borasida tajribalarini o`rtoqlashdi.

Uchrashuv davomida Nailya Bagautdinova QFuning tashkil topish tarixiga to`xtalib, Rossiya Federatsiyasining 2030 loyihasidagi ishtiroki xususida ishtirokchilarga ma'lumot berdi.

*Ma'lumot uchun: Qozon Federal universiteti QS reytingida 347-o`rinni va THE reytingida 801-1000 o`rinni egallagan.*



## Xalqaro Fransuz tili o'qituvchilari kuni.



Bugun, 25-noyabr kuni O'zbekiston Milliy universitetida Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi, Toshkentdagi Fransuz Alyansi, O'zbekiston Milliy universiteti va "O'zbekiston-Fransiya" do'stlik jamiyati hamkorligida "Xalqaro fransuz tili o'qituvchilari kuni" munosabati bilan tashkil etilgan "Covid 19 va undan so'ng?" mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkentdagi Fransuz Alyansi tashkiloti vakillari hamda fransuz tiliga ixtisoslashtirilgan 51- va 112-maktab o'qituvchilari ishtirok etdi.

Tadbir davomida ta'lim tizimida Covid 19 ning ta'siri, o'qitish jarayonlari, gibrid ta'lim, kasbiy madaniyat, masofaviy ta'lim kabi bir qator mavzularda fikr yuritildi.

Tadbir yakunida Fransiya elchixonasining ta'lim sohasidagi Atteshesi Serge Bellini O'zbekiston Milliy universiteti rahbariyatiga tadbirni tashkil etish va o'tkazishdagi amaliy yordami uchun minnatdorchilik bildirdi.



## Kembrij universiteti matbuot va baholash bo'limi ta'lim bo'yicha maslahatchisi O'zMUda



Bugun, 26-noyabr kuni Buyuk Britaniyaning Cambridge University Press and Assessment (Kembrij universiteti matbuot va baholash) bo'limi hamda O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti hamkorligida "Ta'lim va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot" mavzusida seminar-trening tashkil etildi.

Tadbirda Cambridge University Press and Assessment bo'limi ta'lim bo'yicha maslahatchisi Steve King o'zining ma'ruzasi bilan ishtirok etdi.

Ma'ruzada jahonda ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati, ko'rsatkichlari va hozirgi tendensiyalari haqida so'z yuritildi. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari xorijiy mutaxassis tomonidan tahlil qilib berildi.

Seminar-trening yakunida talabalar-yoshlar ta'lim va oliy ta'limni davom ettirish masalasiga oid o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldilar. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyada davom ettirish imkoniyatlari haqida ma'lumotga ega bo'ldilar.

Xorijlik mutaxassis Steve King bu kabi tadbirlarni kelgusida yana tashkil etish tarafdori ekanligini va hamkorlikka tayyor ekanligini bildirdi.



# Rus tili Rossiya-O'zbekiston muloqotning rivojlanish omili sifatida.



Bugun, 29-noyabr kuni O'zbekiston Milliy universiteti, Tomsk Davlat universiteti va Sibir-Yevroosiyo ekspert klubi bilan hamkorlikda "Rus tili Rossiya-O'zbekiston muloqotning rivojlanish omili sifatida" xalqaro davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va Chirchiq davlat pedagogika instituti rus tili va adabiyoti mutaxassislari ishtirok etdi.

Davra suhbatini davomida Tomsk Davlat universitetining O'rta Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha rektor maslahatchisi S.M.Yun, Tomsk Davlat universitetining filologiya fakulteti dekani I.V.Tubalova va Tomsk Davlat universiteti dotsenti D.A.Olitskayalar bugungi kunda Rossiya va O'zbekistonda rus tilini o'qitish holati, rus tilini chet tili sifatida o'rganish, zamonaviy metodlari, O'zbekiston Milliy universiteti va Tomsk Davlat universiteti o'rtasida hamkorlikning yangi istiqbolli yo'nalishlari to'g'risida fikr almashildi.

Shuningdek, ishtirokchi mutaxassislar tomonidan respublikamizda rus tilini o'qitishdagi holat, pedagoglarning kasbiy malakasi, yangi innovatsion metodlar, milliy darsliklar va multimedia mahsulotlar yaratish kabi masalalar muhokama qilindi.



# Nizomiy Ganjaviy: madaniyat o'rtasidagi ko'priklar.



2021 yil 24-27 noyabr kunlari Ozarbayjonning Boku shahrida Ozarbayjon Madaniyat vazirligi, Ozarbayjon Oliy ta'lim vazirligi hamkorligida Nizomiy Ganjaviyning 880 yilligi munosabati bilan "Низомий Ганжавий: Мосты между культурами" mavzusida xalqaro forum o'tkazildi.

Xalqaro forumda 10 ortiq davlatlardan filolog, manbashunos, matnshunos, faylasuf va tarixchi olimlar ishtirok etdi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Falsafa va ma'naviyat asoslari" kafedrasini mudiri professor, falsafa fanlari doktori Niginaxon Shermuxamedova "Nizomiy Ganjaviy Xamsa asarining hozirgi davr ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishdagi falsafiy ahamiyati", O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti "O'zbek adabiyoti" kafedrasining mudiri professor, filologiya fanlari doktori Xamidulla Boltaboyev "Nizomiy Ganjaviy ijodining zamonaviy badiiy adabiyotning rivojlantirishdagi o'rne" mavzularda ma'ruza qildilar. O'zbekiston Milliy universiteti professorlari Ozarbayjonning O'zbekistondagi Madaniyat Markazi tomonidan tashkil etilgan "Nizomiy Ganjaviyning o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlarining taqdimoti"da ishtirok etdilar.

Forum tashkilotchilari tomonidan O'zbekiston Milliy universiteti professori Niginaxon Shermuxamedova hamda professor Xamidulla Boltaboyevlar "Nizomiy Ganjaviyning 880 yilligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.



## Xalqaro yoshlar maktabi ishtirokchilari taqdirlandi.



Avval xabar berganimizdek, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida MDHga a‘zo davlatlarning gumanitar hamkorlik bo‘yicha davlatlararo jamg‘armasi ko‘magida «Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati» mavzuida Xalqaro qishki yoshlar maktabi o‘tkazildi. Unda M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat, Milliy tadqiqot Tomsk davlat, Belarus davlat va Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universitetlari talaba-yoshlari ishtirok etdi. Xalqaro yoshlar maktabida ishtirok etgan xorijlik talabalar Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tarixi va faoliyati bilan tanishtirildi, xususan, universitet kutubxonasi, muzeylar va fakultetlarga tashriflar va Toshkent shahri bilan yaqindan tanishishi uchun shahar bo‘ylab tur tashkil etildi.

*O‘zbekistonning uch qadimiy shaharlari: Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo‘ldik. Avvaldan Buxoro tarixi bilan tanishib, qiziqib yurar edim. Bu loyiha sababli o‘zim bu tarixiy shaharni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Kitoblarda o‘qiganlaringizni o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rish juda boshqacha bo‘lar ekan. Bu shahar olam mo‘jizalaridan biriga o‘xshaydi. Bu imkoniyatni bizga bergan tashkilotchilarga, professor-ustozlarga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman, - deydi Moskva davlat universiteti talabasi Yuriy Knapik.*

Shuningdek, xalqaro yoshlar maktabi doirasida «Yoshlarning xalq diplomatiyasidagi o‘rni» mavzuida xalqaro konferensiya tashkil etildi. Konferensiyada yoshlarning xalq diplomatiyasidagi o‘rni, xalqaro yoshlar maktabining hamkorlikdagi ahamiyati, sportning xalq diplomatiyasidagi o‘rni hamda o‘n kunlik o‘rganishlar yuzasidan ishtirok etayotgan xorijlik talabalar o‘z taqdimotlarini himoya qildi, o‘zbek milliy taomi - osh tayyorlash bo‘yicha master-klasslarda ishtirok etdi.



## Bordo universiteti bilan onlayn uchrashuv.



2021-yilning 7-8 oktabr kunlari o'kazilgan "O'zbekiston-Fransiya ta'lim forumi" da tashrif buyurgan Fransiyaning Bordo universiteti vakillarining shaxsiy tashabbuslari bilan O'zbekiston Milliy universiteti Siyosatshunoslik va Sotsiologiya yo'nalishlarida hamkorlik o'rnatish taklifi bilan chiqishgan edi.

Ikki universitet tegishli yo'nalishlarda konstruktiv hamkorlik o'rnatish maqsadida onlayn uchrashuv tashkil etildi. Unda Bordo universiteti xalqaro hamkorlik bo'lim boshlig'i Frédéric Bertrand bilan O'zbekiston Milliy universiteti Xalqaro hamkorlik bo'limi xodimlari va Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani Komiljon Inakovlar ishtirok etishdi.

Onlayn uchrashuv davomida Bordo universiteti bilan hamkorlik shartnomasi imzolash, professor-o'qituvchilarning malaka oshirish va stajirovkalarini Fransiyada tashkil qilish masalalari bo'yicha kelishib olindi.

Bordo universiteti vakili fransuz talabalarini bir semestr mobaynida ingliz tilida o'qitiladigan guruhlarda akademik mobillik dasturi orqali yuborish mumkinligini taklif qildi.

Onlayn uchrashuv yakunida tomonlar hamkorlikni olib borish uchun koordinatorlarni belgilab, universitet imkoniyatlarini yana batafsil ko'rib chiqishga kelishib oldilar.v



## Yevroosiyo Milliy universiteti professori O'zMU talabalariga dars mashg'ulotlarini olib bordi.



2021-yilning 22-noyabr kundan 1-dekabr kuniga qadar O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Sotsiologiya" kafedrasida tashabbusi bilan Qozog'iston Respublikasining L.N.Gumilev nomidagi Yevroosiyo Milliy universiteti professori Burakanova Galiya Masigutovna hamda Kovalskaya Svetlana Ivanovna bilan xalqaro hamkorlik va akademik almashinuv doirasida dars mashg'ulotlari tashkil etildi.

Dars mashg'ulotlari "Fan va ta'lim sotsiologiyasi" va "Ijtimoiy antropologiya" fanlaridan 12 soat onlayn ma'ruza va seminar shaklida O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Sotsiologiya" yo'nalishi talaba va magistrilariga olib borildi.



# O'zMU yosh olimlari V.N.Karazin nomidagi Xarkov Milliy universitetida.



Avval xabar berganimizdek, 2021-yilda «El-yurt umidi» jamg'armasining 2021-yil 22-apreldagi qarori bilan matematika, kimyo, biologiya va geologiya fanlari bo'yicha o'tkazilgan birinchi stipendiya tanlovi natijalari hamda "Jamg'arma stipendiati" deb e'tirof etilgan nomzodlar to'g'risidagi yakuniy xulosasiga ko'ra, O'zbekiston Milliy universitetidan 15 nafar yosh olimlar g'olib bo'lib, xorijiy universitetlarga stajirovka va malaka oshirish uchun yo'llanma oldilar.

2021-yil sentabr-dekabr oylarida Kimyo fakulteti Noorganik kimyo kafedrasini mudiri, k.f.n. dotsent, Dilnoza Raxmonova va kafedra dotsenti v.b., PhD Batirbay Torambetov, Analitik kimyo kafedrasini dotsenti v.b. PhD Jamoliddin Todjiev va kafedra dotsenti, PhD Dilshod Ziyaevlar Ukraina Respublikasining V.N.Karazin nomidagi Xarkov Milliy universitetida malaka oshirishga bordilar.

Stipendiatlarimizni universitet prorektori, professor Aleksey Navrotskiy va Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i, professor Aleksandr Xijnyak, Kimyo fakulteti dekani, professor Oleg Kalluginlar iliq kutib olib, ularga barcha imkoniyatlardan foydalanishlarini ta'minlab bermoqda. 2021-yil 20-noyabr kuni Noorganik kimyo kafedrasini mudiri, k.f.n. dotsent Dilnoza Raxmonova stajirovkani muvaffaqiyatli yakunladi va prorektor Aleksey Navrotskiy tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi.

Stipendiatlarimiz malaka oshirish davomida mutaxassislik fanlaridan "Ochiq ma'ruza" o'tganligi to'g'risida sertifikat oldilar. Shuningdek, kelajakdagi mustahkam hamkorlik aloqalarini davom ettirish maqsadida O'zbekiston Milliy universiteti va Xarkov Milliy universiteti o'rtasida shartnoma tuzish, birgalikda ilmiy maqolalar yozish, ilmiy loyihalar tayyorlash, hamkorlikda qo'shma fakultet dasturi yuzasidan yangi yo'nalishlar ochish va boshqa hamkorlik ishlari muhokama qildilar.



## Yelabuga instituti bilan hamkorlik yo‘l xaritasi muhokama qilindi.



2021-yilning 7-dekabr kuni Qozon Federal universiteti qoshidagi Yelabuga instituti direktori Merzon Yelena Yefimova O‘zbekiston Milliy universiteti va Yelabuga instituti o‘rtasida hamkorlik yo‘l xaritasini muhokama qilish maqsadida tashrif buyurdi.

Uchrashuv davomida akademik mobillik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, qo‘shma ta‘lim dasturlarini tashkil etish, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish, ilmiy stajirovkalarni yo‘lga qo‘yish xususida fikrlar almashinildi.

Shuningdek, uchrashuvda konstruktiv va samarali hamkorlikni rivojlantirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani haqida so‘z yuritildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar “Rus tili xorijiy til sifatida” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha qo‘shma dasturni amalga oshirishga hamda professor-o‘qituvchilar kollaboratsiyasini yo‘lga qo‘yish maqsadida kafedralar miqyosida onlayn uchrashuvlar tashkil qilishga kelishib olindi.



# Xalqaro Simpoziumning birinchi kuni o'z nihoyasiga yetdi.



2021-yil 9-dekabr kuni O'zbekiston Milliy universiteti Biologiya fakulteti, " Ecobiome" O'zbekiston-Xitoy qo'shma ilmiy tadqiqot laboratoriyasi, AQShning Kaliforniya Davis universiteti va bir qator hamkor tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan "1st Central Asia Genomics Symposium" – «Birinchi Markaziy Osiyo Genomikasi» mavzuida Xalqaro Simpoziumning birinchi kuni o'z nihoyasiga yetdi.

Anjumanning maqsadi qishloq xo'jaligi, tibbiyot, farmasevtika, mikrobiologiya, oziq-ovqat, diagnostika va boshqa sohalarda genomika va bioinformatka metodlarini tadbiq etish borasida tajriba almashish hamda ushbu sohalarda xalqaro ekspertlar bilan birgalikda hamkorlik o'rnatishga yo'l ochishdan iborat.

Anjuman gibrid formatda tashkil qilinib, ingliz va rus tillarida olib borildi.

Simpoziumni O'zbekiston Milliy universiteti professori Dilfuza Egamberdiyeva hamda Kaliforniya Davis universiteti professori Paulina Carmona Mora ochib berdi.

Xalqaro olimlar tomonidan sohadagi dolzarb mavzularda ma'ruzalar olib borildi.

Xalqaro simpozium yakunida tezislar simpoziumning ilmiy to'plami shaklida nashr etiladi, tezis topshirganlik to'g'risida mualliflarga elektron sertifikatlar beriladi va eng yaxshi 4 ta taqdimot uchun mukofot beriladi. Xalqaro simpozium 10-dekabr kuni davom etadi.



# Mordova Davlat universiteti delegatsiyasining O'zbekiston Milliy universitetiga tashrifi.



2021-yilning 10-dekabr kuni N.P.Ogarev nomidagi Mordova Davlat universiteti rektori vazifasini bajaruvchi Glushko Dmitriy boshchiligidagi delegatsiya O'zbekiston Milliy universitetiga tashrifi buyurdi.

Tashrifdan ko'zlangan maqsad O'zbekiston Milliy universiteti bilan o'zaro hamkorlik memorandumini imzolash va istiqboldagi rejalarni muhokama qilishdan iborat.

Konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda tomonlar, eng avvalo, talaba-yoshlarning o'quv va madaniy dasturlari doirasida hamkorlik qilish, birgalikda fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, xalqaro konferensiyalar, seminarlar, simpoziumlar va boshqa tadbirlarni hamkorlikda tashkil etish, kelgusida biotexnologiya, yoritish texnikasi kabi sohalarda hamkorlik qilish borasida fikr almashdilar.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Milliy universiteti va Mordova Davlat universiteti o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi.



# Qirg'iz-O'zbek Xalqaro universiteti talabalari O'zMUda.



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va Batirali Sidikov nomidagi Qirg'iz-O'zbek Xalqaro universiteti (QO'XU) o'rtasidagi hamkorlik shartnomasi doirasida QO'XUning bir guruh talabalari joriy yilning 20-noyabrdan 10-dekabrgacha O'zbekiston Milliy universitetining turli fakultetlarida akademik mobillik dasturi bo'yicha amaliyot o'tashdi.

Amaliyot davomida QO'XU talabalari universitetning tarixi, o'quv jarayoni va fakultetlarning professor-o'qituvchilari bilan yaqindan tanishdilar.

Bo'sh vaqtlarida, ular uchun Toshkent shahrining tarixiy va madaniy obidalariga ekskursiyalar uyushtirildi, qardosh xalqning tarixi, madaniyati, an'analari va san'ati bilan yaqindan tanishdilar.

Shuningdek, amaliyot yakunida xorijiy talabalarning badiiy chiqishlari ham namoyish etildi hamda ushbu amaliyotni muvaffaqiyatli o'tganliklarini tasdiqlovchi sertifikatlar topshirildi.



## Elsevier vakillari bilan uchrashuv.



2021-yilning 10-dekabr kuni O'zbekiston Milliy universiteti va Markaziy Osiyo va Ozarbayjondagi Elsevier S&T rahbari Damir Raxmetov bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda O'zbekiston Milliy universitetining Elsevier bilan bevosita o'zaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, ushbu tashkilot mahsulotlaridan yetakchi dunyo reytinglari bo'yicha universitet vakolatxonasini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish, xususan, professor-o'qituvchlarining ilmiy faoliyati hamda universitetning xalqaro reytinglardagi mavqeini oshirish masalalar ko'rib chiqildi.

***Ma'lumot o'rnida:*** Elsevier - global ilmiy hamjamiyat bilan hamkorlik qiladigan, 2500 dan ortiq jurnal va 20000 dan ortiq kitob nashr etadigan ilmiy, texnik va tibbiy axborot mahsulotlari va xizmatlarining yetakchi provayderi



## Xalqaro hamkorlik doirasidagi dars mashg'ulotlari davom etmoqda




Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti o'rtasida doimiy xalqaro hamkorlik aloqalari olib borilmoqda.

Xalqaro hamkorlik yuzasidan O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Etika va estetika" kafedrasida akademik almashinuv doirasida ikki oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotlarini olib borishda amaliy ishlar olib bormoqda.

Joriy yilning 13-dekabr kuni "Etika va estetika" kafedrasida mudiri, professor Lalixon Muxamedjonova Janubiy Qozog'iston universiteti Falsafa sohasidagi professor-o'qituvchilariga va talabalariga "Философско-нравственные взгляды мыслителей тюркских народов" mavzusida ma'ruza mashg'uloti olib bordi.

*Ma'lumot o'rnida, hamkorlikdagi darslar 12 soatga rejalashtirilgan va dars mashg'ulotlari belgilangan reja asosida olib borilmoqda.*



## O'zMU professori Janubiy Qozog'iston universitetida ma'ruza mashg'uloti olib bormoqda.



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univyersiteti va Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti o'rtasida xalqaro hamkorlik yuzasidan universitet Ijtimoiy fanlar fakulteti "Falsafa va mantiq" kafedrasida akademik almashinuv doirasida ikki oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotlarini olib borishda amaliy ishlar olib bormoqda.

Jumladan, joriy yilning 14-dekabr kuni "Falsafa va mantiq" kafedrasida mudiri, professor Shahnoza Madayeva Janubiy Qozog'iston universiteti talabalariga "Markaziy Osiyo xalqlari falsafa tarixi" fanidan "Alisher Navoiyning falsafasi" mavzuida ma'ruza mashg'uloti olib bordi.

*Ma'lumot o'rnida, xalqaro hamkorlik doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish yuzasidan ham kelishuvlar olib borilmoqda.*



# O'ZMUNING XALQARO REYTINGDAGI KO'RSATKICHLARI KO'TARILDI.




O'zbekiston Milliy universitetida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, O'zbekiston milliy universitetini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yhatiga kiritish maqsadida xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha strategik ishlar olib borilmoqda.

Xususan, dunyoning kuchli 500 universitetlar qatoridan joy olishi uchun har bir ko'rsatkichni oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi. O'zMU xalqaro reytinglarda ishlash bo'yicha muntazam ravishda seminar-treninglarda faol ishtirok etib, kasbiy malaka oshirmoqda.

"Quacquarelli Symonds" xalqaro agentligining 2022-yil uchun eng yaxshi universitetlar reytingida O'zbekiston Milliy universiteti ko'rsatkichlar bo'yicha o'z natijalarini oshirdi. QS World University Rankings EECA, ya'ni Rivojlanayotgan Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari reyting natijalariga ko'ra, O'zbekiston milliy universiteti o'tgan yili 351+ o'rin olgan bo'lsa, 2022-yil uchun e'lon qilingan reytingda 100 pog'ona yuqoriga ko'tarilib, 251+ o'rinni egalladi.

Akademik obro' ko'rsatkichi bo'yicha universitet +155 o'rin bilan mintaqa bo'yicha eng kuchli natijaga ega bo'ldi. Shuningdek, ilmiy nashrlarga iqtiboslik ko'rsatkichida 164 o'rinni egalladi.



Academic Reputation	155	▲
Employer Reputation	201+	▲
Faculty Student	210	▲
Staff with PhD	251+	▼
Citations per Paper	164	▲
Papers per Faculty	251+	▼
International Research Network	251+	▼
International Faculty	170	▼
International Students	251+	▼
Web Impact	251+	▲

QS only publishes exact ranks for the top 200 institutions in Academic and Employer Reputation indices and for the top 250 in all other indicators.

## Oltoy davlat universiteti bilan onlayn uchrashuv tashkil etildi.



O'zbekiston Milliy universiteti va Oltoy davlat universiteti o'rtasida onlayn uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad har ikki universitetni xalqaro reytinglarda ilgari surish sohasida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Uchrashuvda tomonlar xalqaro reytinglarning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlik yuzasidan fikr almashdilar. Xususan, hamkorlikda talabalar almashinuvi masalalariga to'xtalib o'tildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar universitetlarning turli yo'nalishlar vakillari bilan muntazam uchrashuvlar tashkil etishga kelishib oldilar. *Ma'lumot o'rnida, Oltoy davlat universiteti QS xalqaro reytingida 561-570 o'rinlarni egallagan.*

Ikkinchi Rossiya-O'zbekiston ta'lim forumi doirasida O'zbekiston Milliy universiteti va Oltoy davlat universiteti o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi imzolandi.



## Qozon Federal universitetining Filologiya va madaniyatlararo aloqalar instituti vakillarining O'zMUga tashrifi.



Qozon Federal universitetining Filologiya va madaniyatlararo aloqalar instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor Zamaletdinov Radif Rifkatovich O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi.

Uchrashuvda O'zbek-Qozon qo'shma dasturi talabalarini rus tili imtihonlariga tayyorlash masalasi muhokama qilindi.

Shu bilan birga, kelgusida O'zbek-Qozon qo'shma dasturini muvafaqqiyatli davom ettirish maqsadida maktab, litsey va texnikum bitiruvchi yoshlarni mazkur dastur to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilib borish, ular uchun ochiq eshiklar kuni tashkil etish kabi masalalar muhokama qilindi.

O'z navbatida, professor Radif Zamaletdinov hamkorlikda Qozon Federal universiteti va O'zbekiston Milliy universiteti negizida "Turkologiy" mutaxassisligi bo'yicha qo'shma diplom (double degree) loyihani amalga oshirish bo'yicha taklif bildirdi.

Uchrashuv yakunida 2022-yilning fevral oyidan O'zbekiston Milliy universiteti platformasida ochiq eshiklar kunini tashkil etishga kelishib olindi.



## Strategik hamkorlikni rivojlantirish yo'lida.



Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti Umumiy tarix kafedrasini mudiri Guljan Otarbayeva tarix yo'nalishida hamkorlikni rivojlantirish hamda akademik almashinuv yuzasidan dars mashg'ulotlarini olib borish maqsadida O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi.

Uchrashuv davomida o'zaro manfaatli hamkorlik yo'nalishlari xususida fikrlar almashishdi, xususan, hamkorlikda talabalar almashinuvi, xalqaro qishki maktablarni o'tkazilish masalalari ko'rib chiqildi. Uchrashuv yakunida tomonlar ish jarayonida hamkorlikda ishlashga kelishib olindi.

*Ma'lumot o'rnida, Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti QS Xalqaro reytingda 482 o'rinni egalladi.*



# Turkiya delegatsiyasining O'zbekiston Milliy universitetiga tashrifi.



Joriy yilning 20-dekabr kuni Turkiyaning O'zbekistondagi elchixonasi xodimi Burak Topchi va elchixonona tarkibidagi turk maktabi direktori Evni Engin O'zbekiston Milliy universitetiga tashrif buyurdi.

Uchrashvda Burak Topchini O'zMUda ilmiy tadqiqot olib borish masalasi muhokama qilindi. Shu bilan birga, Turkiyaning O'zbekistondagi elchixonasi tarkibidagi turk maktabi bilan ham hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash xususida ham fikrlar almashinildi.

Uchrashuv yakunida Burak Topchi O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakultetida ilmiy tadqiqot olib borishiga kelishib olindi.

*Ma'lumot uchun: Burak Topchi Turkiyaning O'zbekistondagi elchixonasi moliyaviy masalalar bo'yicha maslahatchi hisoblanadi (2021-yil fevral oyidan boshlab). Bunga qadar u Turkiyaning G'aznachilik va davlat vazirligida bo'lim boshlig'i vazifasida ishlagan.*



## Koreya Respublikasi Demokratik partiyasining Markaziy Osiyo bo'yicha vakili, professor O'zMU talabalariga ma'ruza mashg'ulotlarini olib bordi.



O'zaro erishilgan kelishuvga muvofiq, joriy yilning 21-dekabr kuni Koreya Respublikasi Demokratik partiyasining Markaziy Osiyo bo'yicha vakili, Kukkiwon universiteti professori Vu Hyon Li O'zbekiston Milliy universitetining Taekvondo va sport faoliyati fakulteti talaba-yoshlariga ma'ruza mashg'ulotlarini olib borish maqsadida universitetga tashrif buyurdi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Milliy universiteti rektori qabulida uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan do'stona muloqot o'rnatilganligi, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari izchil rivojlanayotganligi hamda ko'p qirrali hamkorlik kengayib borayotgani ta'kidlandi. Bunga ikki davlat prezidentlari sammiti yaqqol dalil bo'lishi ta'kidlab o'tildi.

Uchrashuvdan so'ng Koreya Respublikasi Demokratik partiyasining Markaziy Osiyo bo'yicha vakili, Kukkiwon universiteti professori Vu Hyon Li hamda Taekvondo va sport faoliyati fakulteti professori Bayok Mun Jonglar Taekvondo va sport faoliyati fakultetida tahsil olayotgan talabalarga ma'ruza mashg'ulotini olib bordilar.



# O'zbekiston Milliy universitetining 2021-yil yakunlari: natijalar va istiqboldagi rejalar.



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda yetakchi oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Universitet bir asrlik faoliyati davomida 100 mingdan ortiq yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab, mamlakatimizning barcha sohalarini yetuk kadrlar bilan ta'minlashda katta xizmat qilib kelmoqda.

Shuningdek, universitet 2021-yilda QS World University Rankings xalqaro reyting agentligi tomonidan Rivojlanayotgan Yevropa va O'rta Osiyo davlatlari reytingida 100 pog'ona yuqorilab, 254+ o'rinni egalladi va Akademik obro' ko'rsatkichi bo'yicha +155 o'rin bilan QS EECA University natijasiga ko'ra, eng kuchli universitetlar tarkibiga kirdi.

Bir asrlik tarixga, boy an'alarga va innovatsion g'oyalarga ega bo'lgan ilm-u ma'rifat va ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuqlarni yanada ko'paytirish, Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'shish uchun qat'iyat va shijoat bilan mehnat qilib kelayotgan O'zbekiston Milliy universiteti jamoasini munosib taqdirlash maqsadida bugun – 25-dekabr kuni “2021-yil yakunlari: natijalar va istiqboldagi rejalar” nomli 2021-yil yakunlariga bag'ishlangan taqdirlash marosimi bayram tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori Inom Madjidov, soha prorektorlari, akademiklar, professor-o'qituvchilar, bo'lim boshliqlari va universitet xodimlari ishtirok etdi. Tadbirda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Toshqulov Abduqodir O'zbekiston Milliy universitetining joriy yildagi yutuqlari, xususan, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy salohiyatni oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish asosida dunyoda tan olingan reytinglarga kirish bo'yicha salmoqli ishlarini e'tirof etdi.

